

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 27-may chorshanba №21(9606)

UZUNLIK MUALLIM: “BU HALI BOSHLANISHI!”



3 -bet

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



O'quvchilar maktabni bitirmasdanoq til sertifikatini qo'lga kiritmoqda. Shunday bir vaziyatda OTMda 4 yil tahsil olgan va ma'lum ish tajribasiga ega o'qituvchi sertifikatni ololmayotgani kishini o'ylantiradi. B2 va C1 darajadagi sertifikatga ega o'quvchilar ta'lim olayotgan sinfga yetarli malakaga ega bo'lmagan o'qituvchi qanday qilib sifatli dars o'ta oladi?

Gulrux BAXTIYOROVA

Iqtidorli yoshlar – yurt kelajagi

“Xorijda o‘qish – katta yo‘lning boshlanishi”



Yoshlarning xorijda ta‘lim olishi oddiy hodisaga aylanmoqda, lekin bu jarayon ortida ulkan mehnat, qat‘iyat va aniq maqsadlar yotadi. Ayniqsa, huquq sohasida tahsil olayotgan yoshlar uchun rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish nafaqat shaxsiy yutuq, balki yurtimiz kelajagi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ana shunday izlanish yo‘lini tanlagan yoshlardan biri – Navro‘zbek Tilaboyev. U AQSHdagi nufuzli universitetlardan birida tahsil olib, ilmiy izlanish va amaliy tajribani birgalikda uyg‘unlashtirib kelmoqda.

Navro‘zbekning bolalikdagi huquq sohasiga qiziqishi Toshkent davlat yuridik universitetidagi talabalik yillarida ancha mustahkamlandi. Sud amaliyoti, advokatlik faoliyati va real hayotiy vaziyatlar bilan to‘qnashish orqali huquq – bu shunchaki nazariy bilim emas, balki insonlarning muammolariga yechim topish vositasi ekanligini angladi.

– Aynan shu anglash meni xalqaro tajribani o‘rganishga undadi, – deydi Navro‘zbek. – Magistratura bosqichi uchun bir nechta mamlakatni o‘rganib chiqdim. Jarayon davomida University of Illinois Urbana-Champaign alohida qiziqish uyg‘otdi. Ilmiy muhiti, yuridik fakultetining boy an‘analari, QS xalqaro reytingidagi o‘rni hamda talabalarining ilmga intiluvchanligi – izlayotgan mezonlarimga to‘liq mos keldi. Shu bilan birga, University of Bristol (Buyuk Britaniya) va UC Davis School of Law (AQSH) kabi nufuzli oliy ta‘lim muassasalariga ham hujjat topshirdim. Ma‘lum muddat o‘tgach, universitetlardan birin-ketin qabul xatlari kela boshladi. UC Davis School of Law 28 000 AQSH dollari, University of Illinois Urbana-Champaign esa 25 000 AQSH dollari miqdorida merit asosidagi stipendiya taklif qildi. Shulardan University of Illinois Urbana-Champaignni tanladim. Bunga ushbu universitetning yuridik maktabida korporativ va biznes huquqi yo‘nalishi kuchli rivojlangani, ilmiy-tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar mavjudligi hamda bu maskan nafaqat ta‘lim olish joyi, balki kelajakda professional shakllanishim uchun zarur muhitga ega ekani sabab bo‘ldi.

AQSH tasodifiy tanlov emas edi. Bu davlat menga, avvalo, huquqiy madaniyati, qonun ustuvorligi va tizimli yondashuvi bilan qiziqarli edi. Ammo u yerga borgach, hayot kitoblar, kinolar va boshqa ommaviy axborot vositalarida tasvirlangandan boshqacharoq ekanini ko‘rdim.

Amerikada huquq faqat qonunlar majmuyi emas, u kundalik hayotga singib ketgan odatlar tizimidir. Avvalo, AQSH jamiyatida qonunga hurmat kuchli shakllangan. Fuqarolar yo‘l harakati qoidalaridan tortib, jamoat joylarida o‘zini tutish me‘yorlarigacha bo‘lgan tartiblarga qat‘iy amal qiladi. Masalan, piyodalar uchun belgilangan joydan o‘tish, navbatga rioya qilish, jamoat joylarida

shovqin qilmaslik kabi oddiy qoidalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Muhimi, bular majburiyat sifatida emas, balki ichki madaniyat sifatida qabul qilingan. Bunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati ham muhim rol o‘ynaydi. U yerda qonun buzilishiga nisbatan murosasiz yondashuv mavjud, hatto kichik qoidabuzarliklar uchun ham jarima yoki boshqa choralar qo‘llaniladi. Bu esa fuqarolarda mas‘uliyat hissini yanada oshiradi. Shuningdek, AQSH Konstitutsiyasi asosida fuqarolarga keng huquq va erkinliklar berilgan bo‘lsa-da, bu erkinliklar boshqalarning huquqlariga zarar yetkazmasligi kerakligi qat‘iy belgilangan. Shu bois, jamoat tartibini saqlash har bir fuqaroning nafaqat majburiyati, balki ijtimoiy burchi sifatida qaraladi.

Yana bir muhim jihat – fuqarolarning o‘zaro hurmati va mas‘uliyatidir. AQSHda odamlar bir-birining shaxsiy hududi, vaqti va huquqlarini hurmat qiladi. Bu esa jamoat joylarida tartib-intizomning tabiiy ravishda saqlanishini ta‘minlaydi.

Universitet muhiti ham o‘ziga xos. Bu yerda talabalariga ishonch bildiriladi, erkinlik beriladi va shu orqali mas‘uliyat hissi shakllantiriladi. Akademik halollik, intizom va ochiq fikrlash tizimning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, ayrim jihatlarida farqli yondashuvlarni ham kuzatdim. Xususan, oila va tarbiya masalasida G‘arb va Sharq qarashlari o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud. AQSHda individual huquqlar ustuvor bo‘lsa, bizning jamiyatda oila, an‘ana va o‘zaro hurmat muhim o‘rin tutadi. Bu esa shunday xulosaga olib keladi: har qanday huquqiy tizimni boshqa jamiyatdan to‘liq ko‘chirib olish mumkin emas. Qonunlar universal bo‘lishi mumkin, ammo ularni amalda ishlatadigan madaniyat har bir xalqning o‘ziga xos qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Shu ma‘noda, huquqiy davlat qurish jarayoni faqat qonunlar yaratish bilan cheklanmaydi. Bu – jamiyatda huquqiy ongni shakllantirish, fuqarolarning qonunga bo‘lgan ishonchini oshirish va kundalik hayotda qonuniyligni ta‘minlash bilan bog‘liq murakkab jarayondir.

Aynan shu maqsadda Navro‘zbek ham mazkur sohaga o‘z hissasini qo‘shish yo‘lida tinimsiz izlanmoqda. U sohaga oid xalqaro va milliy konferensiyalarda muntazam ishtirok etib, bugungi kunga qadar qator ilmiy ma-



qolalar e‘lon qilgan. Shuningdek, yurtimizdagi oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda talabalar uchun onlayn mashg‘ulotlar tashkil etib, ularning huquqiy bilimlarini oshirib, bilim va tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yib kelmoqda.

Navro‘zbekning ilmiy izlanishlari va mamlakat rivojiga qo‘shayotgan hissasi e‘tibordan chetda qolmadi. U Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi miqyosida o‘tkazilgan “El-yurt faxri” xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik-tanlovida faol ishtirok etib, “El-yurt faxri” xalqaro esdalik nishoni hamda “Yosh tadqiqotchi” (“Молодой исследователь”) ko‘krak nishonlari bilan taqdirlandi.

– Vatanga qaytib, egallagan bilim, ko‘nikma va tajribalarim yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida tatbiq etish asosiy maqsadimni, – deydi u. – Shuningdek, ilmiy faoliyatimni yanada chuqurlashtirib, Harvard Universityda PhD bosqichini davom ettirishni rejalashtiryapman. Bu esa ilmiy izlanishlarimning navbatdagi muhim bosqichi bo‘ladi. Asosiy maqsadim – yangi bilimlarni egallash va izlanishdan hech qachon to‘xtamaslik.

Navro‘zbekning fikricha, xorijda o‘qish – bu yakun emas, balki katta yo‘lning boshlanishi. Yoshlar uchun esa u bir necha muhim jihatni ta‘kidlaydi: faollik, izlanish, mustaqillik va sabr. Chunki chet elda ta‘lim olish nafaqat bilim, balki ruhiy va ijtimoiy sinov, kezi kelganda mustaqil qarorlar qabul qilish demakdir.

Amerika – tartib, tizim va imkoniyatlar uyg‘unlashgan makon. Insonni o‘ylashga, taqqoslashga va o‘z yo‘lini aniq belgilashga undaydi.

“Ma‘rifat” muxbiri
Shodiyona XUSHMURODOVA
yozib oldi.

Tajriba

Zamonaviy tarbiya:

Yaponiya tajribasi va Namangan modeli

Bugungi kunda ta‘lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri – har tomonlama barkamol, intizomli, mas‘uliyatli va mehnatsevar yosh avlodni tarbiyalashdir. Bu jarayonda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta‘lim tizimiga moslashtirish muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, Yaponiya ta‘lim tizimining samarali jihatlarini amaliyotga joriy etish orqali o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Namangan viloyati hokimining 2026-yil 5-fevraldagi “Yaponiya ta‘lim tizimiga xos ayrim ilg‘or tajribalarni umumta‘lim maktablarida joriy etish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi ushbu yo‘nalishdagi ishlarning huquqiy asosini yana bir karra mustahkamladi. Mazkur qarorda Yaponiya ta‘lim tizimiga xos ilg‘or tajribalarni umumta‘lim maktablarida tajriba-sinov asosida joriy etish, ularni ommalashtirish va metodik jihatdan takomillashtirish vazifalari aniq belgilab berilgan. Qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida

viloyat maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi, hududiy bo‘limlar hamda ommaviy axborot vositalari tomonidan keng qamrovli targ‘ibot ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Qarorda alohida e‘tibor Namangan davlat pedagogika instituti qoshida faoliyat yuritayotgan “EDUKIDS” va “Boshlang‘ich sinf ta‘limini rivojlantirish” o‘quv-metodik markazlariga qaratilgan. Ushbu markazlar Yaponiya pedagogik tajribasini mahalliy sharoitga moslashtirish, pedagogik ta‘lim mazmunini boyitish va innovatsion metodlarni amaliyotga joriy

etishda muhim ilmiy platforma vazifasini o‘taydi. Ayniqsa, 2026-2027-o‘quv yilidan boshlab hududiy ta‘lim muassasalari bilan integratsiyalashgan yagona metodik tizimni shakllantirish rejalashtirilayotgani bu boradagi ishlarning izchil davom etayotganidan dalolat.

Mazkur islohotlar doirasida pedagogik amaliyot ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Jumladan, institutning maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari amaliyotlarini bevosita Yaponiya tajribasi joriy etilayotgan ta‘lim muassasalarida o‘tashi, nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan boyitishi ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqotlar doirasida Yaponiya ta‘limi va tarbiyasiga oid izlanishlar olib borish, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish hamda xalqaro grant loyihalarida faol ishtirok etish kabi vazifalar belgilangan.

Yaponiya ta‘lim tizimiga xos “Gakko soji” – maktabni o‘quvchilarning o‘zlari tozalashi, refleksiya va o‘zini baholash, jamoaviy mas‘uliyat kabi elementlar ularning nafaqat bilimini, balki hayotiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu yondashuv o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Amaliyotga tatbiq etilayotgan metodik yondashuvlar o‘quvchilarda muhim shaxsiy sifatlarni kompleks ravishda shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, mehnatsevarlik kichik va muntazam vazifalarni bajarish orqali odatga aylantiriladi, intizom esa kundalik tartib hamda qoidalariga rioya qilish orqali mustahkamlanadi. Mas‘uliyat hissi shaxsiy va jamoaviy vazifalarni bajarish jarayonida rivojlantirilsa, hamkorlik ko‘nikmalari guruhli faoliyat va o‘zaro yordam asosida shakllanadi.

Namangan viloyatida amalga oshirilayotgan mazkur tizimli islohotlar ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish bilan birga, kelajak avlodni har tomonlama yetuk, ijtimoiy faol va mas‘uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Mahliyo JAKBAROVA,
NamDPI “Boshlang‘ich ta‘lim innovatsiyalari” kafedrasida katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Yosh kitobxon

UZUNLIK MUALLIM: “BU HALI BOSHLANISHI!”

Hayot insonni ba'zan kutilgan, ba'zan kutilmagan manzillar aro tortqilaydi. Birda quvonch-u baxtning mayidan sarxush bo'lsak, birda armon, yo'qotishlar sabrimizni sayqallaydi go'yo. Baxtning-ku sherigi topiladi, ammo qayg'uli onlar, yo'qotish, g'am insonni suyashi mumkin bo'lgan bor taskinlarni-da saralaydi. Bunday kezlarda kimdir odamlar orasidan, kimdir vaqtning o'tishidan najot kutadi. Yana kimdir kitob varaqlari oralab dardiga malham, yashash uchun kuch topadi...



– Kitob meni hayotga qaytardi, – deydi “Yosh kitobxon” tanlovining respublika bosqichi g'olibi Fazilat Diyorova. – 2022-yil men uchun juda og'ir kechdi, turmush o'rtog'im baxtsiz hodisa sabab vafot etdi. Bag'rimda 4 yosh va 9 oylik ikki go'dagim, ancha payt o'zimga kelolmadim. Ota-onam, oilam, yaqinlarim, hamkasblarim yelkamdan tutib, qulashimga yo'l qo'ymadi. Asta-sekin barini unutib, hayotga qayta tutunishga urindim. Bu yo'lda eng katta kuch, qalbinga taskinni kitoblardan oldim; mutolaa azob-u hijronlarimga malham bo'lib, og'riqlarimni davolayotganday his qilardim. Kunlarning birida miyamga shu tanlovda qatnashish fikri o'mashib oldi-yu, hech chiqay demadi. Ammo vujudim uzra qo'rquv ham bor edi: uddalay olamanmi? Kuchim yetadimi?

Telekanallarda Yurtboshimizning biz yoshlarga qarata aytgan gaplari, ishonchi, qo'llab-quvvatlashi, ma'naviy kuch berayotgan o'tkir nutqlari meni uyg'otdi. Hali ko'p ishlar qilishim kerakligi, to'xtab qolish, maqsadlarimdan kechish, ikkilanish xatoligini angladim. O'sha kundan e'tiboran o'quvchilarimni oliy ta'limga sifatli tayyorlash va o'z ustimda ishlash uchun bor imkoniyatimni ishga soldim. To'g'ri, uyqusiz tunlar, vaqt yetishmasligi muammolari ko'p bo'ldi, lekin mutolaa uchun albatta vaqt topdim!

Bugun yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, mutolaaga mehr uyg'otish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bejiz emas. Mutolaa qilganingiz, yuqoridagi hayotiy hikoya esa bu siyosatning naqadar teranligini yana bir karra isbotlaydi. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan “Yosh kitobxon” tanlovi ana shunday ezgu maqsadga xizmat qilayotgan nufuzli loyihalardan biri desak, yanglishmaymiz. Bu yil mazkur tanlovda surxondaryolik yosh kitobxon – Fazilat Diyorova (20–30 yoshlilar orasida) respublika

bosqichida faxrli 1-o'rinni egallab, voha yoshlari uchun tarixiy natijani qayd etdi.

1997-yil 9-fevralda Uzun tumanidagi Oqmachit qishlog'ida tug'ilgan Fazilat Diyorova bugun nafaqat bilimli kitobxon, balki matonat timsoli sifatida ham ko'pchilikka o'rnak bo'lmoqda. U Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining boshlang'ich ta'lim fakultetini tamomlagan. Hozir esa Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakultetida ikkinchi mutaxassislik bo'yicha tahsil olib, bitiruv arafasida turibdi. Shu bilan birga, Uzun tumanidagi 34-maktabda ona tili va adabiyot hamda boshlang'ich sinf o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritadi.



Ikki nafar farzandning mehribon onasi bo'lgan Fazilat Diyorovaning hayotiga tub burilish yasagan onlar haqida yuqorida yozdik. G'alaba va unga eltgan yo'llar, g'oliblik nash'asi, umuman olganda, uning hayotiga kitob olib kirgan yorug'lik, quvonchli damlarni-da siz-la bo'lishgimiz keldi.

– Kitobga bo'lgan muhabbat ota-onam orqali kichik yoshlarimdan uyg'ongandi, – deydi suhbatdoshimiz. – O'qituvchilar oilasida tug'ilganman. Kitoblar tahlili, ilm bahslari doimiy bo'lib turadigan oilaviy muhitimiz, albatta, o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bugungacha taxminan 700 ga yaqin kitob mutolaa qilganman. Ulardagi turfa taqdirilar ba'zan yangi og'riqlarni his ettirsa, ba'zan hayotimga yaqin hikoyani so'zlaganday bo'lar edi. Xususan, Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi” romani, Chingiz Aytmatovning “Birinci muallim” qissasi qahramonlari ruhimga yaqin bo'lsa, qissadagi oddiy ovul qizi, ya'ni Oltinoy Sulaymonovaning Moskvadek ulkan shaharda akademik unvoniga sazovor bo'lishi menga katta ibrat bo'lgan.

“Kitobxonlik tanlovda vohamizdan hali biror birinchi o'rin sohibi chiqmadi, sen birinchilardan bo'lishing kerak!”

4 yildan buyon mazkur tanlovda qatnashaman. O'tgan yili respublika bosqichida 3-o'rinni egallagandim, bu yil 1-o'rin sohibi bo'lib, Prezident sovg'asi “BYD Chazor” elektromobilini qo'lga kiritdim.

Tanlovga tayyorgarlik jarayoni juda shiddatli bo'lgan deyolmayman. Chunki men kun bo'yi, yoki tun bo'yi kitob bilan mashg'ul bo'la olmas edim. Maktabda qo'rako'zlarga dars berish, uyda farzandlarim tarbiyasi, ota-onamga g'amxo'rlik va uy yumushlaridan ortib, asosan tunlari kitob o'qishga imkonim bo'lardi. Ishga ketayotganda, ishdan uyga qaytayotgan mahalim kitoblarning audio shaklini tinglardim. Tanlovning so'nggi bosqichi yaqinlashgani sayin majburiyat, mas'uliyat meni tamomila uyqusiz qilib qo'ydi. Boisi, yurtdoshlarim ishonchini yelkamga ortib

borayotgan edim. Bu jarayon men uchun shunchaki majburiyat emasdi; “Kitobxonlik tanlovda vohamizdan hali biror birinchi o'rin sohibi chiqmadi, sen birinchilardan bo'lishing kerak!” degan chorlov, talabni o'zimga o'zim qo'yib, xonam devorlari, muzlatkich, telefonim yuziga ham shu so'zlarni yozib qo'ydim...

Tanlovning yakuniy bosqichi haqida to'xtaladigan bo'lsam, hammasi ko'ngildagidek ketayotgan edi. Faqat 2-bosqich – tezkor savol-javob shartida biroz o'ng'aysizlanganday bo'ldim. Chunki savolga tez, aniq va to'g'ri javob berish kerak, soniyalar ichida qaror qabul qilishga to'g'ri keladi. Ammo uddaladim! Yakuniy natijalar hisoblanib, e'lon qilinar ekan, qilgan mehnatlarim, uyqusiz tunlarim birma-bir xayolimdan kechardi. Ism-familiyam va tanlovdagi natijamni aytishdi. Beixtiyor “Haqiqat bor ekan-ku!” deb yuboribman. Otajonimga qo'ng'iroq qildim, xursandligidan yig'lardi, ovozi titragancha uzoq duo qildi... Albatta, bu muvaffaqiyat hali boshlanishi!

“Duoga qo'l ochsam, Ollohdan unga quvonch so'rardim...”

Albatta, ota-ona farzandining quvonchidan quvonadi, kulgusidan hayotiga ma'no, huzur topadi. U nimagadir erishsa, undan ko'proq quvonadi – suhbatdoshimizning otasi mana shunday quvonchli lahzalardagi kechinmalarini biz bilan bo'lishdi.

– Qizim bolaligidan kitobni yaxshi ko'rardi, – deydi Muhammadsaid Diyorov. – Har qanday qiyinchilikda ham mutolaadan uzoqlashmadi. Bilasizmi, hozir o'zim bir dovondan o'tganday, katta bir yutuqqa erishganday quvonib yuribman.

Duoga qo'l ochsam, Ollohdan unga quvonch so'rardim, uni avvalgidek baxtli ko'rishni, mashaqqatlari ortda qolishini istardim, ming shukur. G'olib bo'lganini aytib, qo'ng'iroq qilganida hayajondan ko'zlarimga yosh keldi. Bu nafaqat Fazilatning, balki butun Surxondaryoning yutug'i bo'ldi. Men u bilan faxrlanaman!

Fazilat Diyorovaning “Bu muvaffaqiyat hali boshlanishi!”, degan qat'iy ishonchi ortida hali zabt etmoqchi bo'lgan ulkan marralari ko'pligini angladik. Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lish, she'rlari orqali insonlar qalbiga malham topish, ko'plab kitoblar yozish va adabiyotda o'z o'rnini topish haqidagi orzular uning qalbida allaqachon katta maqsadga aylangan. Eng muhimi, u endi bu orzularga yetish yo'lida qiyinchiliklardan qo'rqmaydi. Chunki hayotning eng og'ir sinovlarini yenggan inson uchun endi hech bir mashaqqat ortga qaytishga sabab bo'la olmaydi.

Bugun Surxondaryoda porlagan bu yulduz vohalik ko'plab yoshlarning qalbida orzu va ishonch uyg'otgani shubhasiz. Zero, kitobga oshno qalblar bor ekan, marifat chirog'i hech qachon so'nmaydi.

Shahnoza YANGIBOYEVA,
“Ma'rifat” muxbiri

Tarbiya – saodat

Vertolyot ota-onalar yoxud tarbiyada samarasiz uslublar

Ba’zi ota-onalar uchun hayot – to’laligicha farzandlarining atrofida aylanib yurish. **Ular vertolyot ota-onalardir.** Ular tepaga ko’tariladi va nazorat qilishadi. Qandaydir muammo tug’ilganda bolalarini qutqarish uchun pastga qayta qo’nishga doimo shay.

Ular doimo bolalarining kiyinishi, yurish-turishi, do’stlari bilan aloqalari va maktabdagi uy vazifalarini deb yelib-yugurishadi. Bir kun yo’qki, farzandini biror narsadan – hatto shakllanayotgan tajribadan “asrab qolmasa”. Ko’ngilsizlik yuz berishi bilan yaqin atrofda aylanib turgan vertolyot ota-ona bolasini o’qituvchilar, o’yindoshlar va “dushman” ko’ringanlardan himoya qiladi. Ha, qaysidir holatda bolalar uchun bu “ko’z-quloq” kerak bo’lishi mumkindir. Ammo... “Mehrison” ota-ona farzandining voyaga yetish yo’lini hozir yengillashtirayotgan bo’lsa, ertaga o’sha bola katta hayot uchun asos bo’ladigan dastlabki davrni behuda o’tkazganligini tushunadi. Bunday bolalar hayot yo’llarida duch keladigan qiyinchiliklarga tayyor emas. Ularning juda muhim bo’lgan o’rganish IMKONIYATLARI ulardan SEVGI nomi ostida o’g’irlangan. Ajablanarlisi shundaki, vertolyot ota-onalar ko’pincha boshqalar tomonidan namunali ota-ona sifatida ko’riladi. Ular farzandlaridagi kichik yomon holatlar va kichik og’riqlarni ham his qilishadi va e’tibor berishadi. Ammo haqiqiy dunyo qutqaruv tamoyili bo’yicha ishlamaydi. Ro’zg’or xarajatlari, muddati o’tgan to’lovlar, mas’uliyatsiz odamlar, og’ir kasalliklar, soliqlar – bu va boshqa, kattalar hayotining odatiy hodisalari yo’qolmaydi, ular doimo

bor va hamma uchun mavjud. Mehrison ota-ona esa doimo bolasini xavfsizlikda saqlashga urinadi, farzandi real dunyo bilan tanishishiga yo’l qo’ymaydi.

Vertolyot ota-ona evolyutsiyasi: turbo-hujumli vertolyot modeli

Dastlab biz ko’p uchratgan vertolyot ota-onalar hozirgi, zamonaviy versiyaga nisbatan zararsiz edi. Bugungi kunga kelib bu tip vakillari nafaqat qutqarish, balki himoya vazifasini ham o’tay boshladi. Ular o’z farzandining raqib bo’lgan har qanday odamga hujum qilish uchun to’liq “qurollangan”. Biz ularni vertolyot ota-onalarning **“reaktiv dvigatelli turbo-hujum rejimi”** deb atasak bo’ladi. Bu ota-onalar o’z farzandlari uchun mukammal dunyo yaratish istagi bilan ovora. Mukammal dunyoda ularning farzandlari hech qachon kurash, qiyinchilik, noqulaylik, umidsizlikka duch kelmasligi kerak. Farzandlari yuqori baholari, darsdan tashqari mashg’ulotlari, mukofotlari bilan qog’ozda ajoyib ko’rinadi. Bu bolalar o’zlarining xatolariga doimo panja orasidan qaralishiga o’rganib qoladilar. Vertolyot ota-onalar shiori shunday: “Bu dunyo raqobatbardosh va men farzandlarimning barcha sharoitga ega bo’lishini xohlayman. Ular men ko’rgan qiyinchiliklarni ko’rmasin”. Mukammal tavsifnoma va maktab shahodatnomasi xarakter va qobiliyat yetukligini bildirmaydi, chunki muvaffaqiyat kurash va qat’iyat, mehnat orqali keladi. Farzandlarini bunday tajovuzkor himoya qilish vertolyot ota-onalar erishmoqchi bo’lgan maqsadning mutlaqo teskarisini yuzaga chiqaradi.

Amir JUMABOYEV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti katta ilmiy xodimi

Kasbiy rivojlanish kuni

Xalqaro tajriba va mahalliy ehtiyojlar uyg’unligi

O’zbekistonda pedagog kadrlarni qo’llab-quvvatlash va ularning kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar har doimgidanda jadal kechayotir. Xususan, uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmlarini joriy etish orqali o’qituvchilarning amaliy faoliyat bilan uzviy bog’liq holda malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2025-2026-o’quv yilida fransuz tili o’qituvchilari uchun tashkil etilgan kasbiy rivojlantirish kurslari jami 72 soatni tashkil etib, shundan 36 soati Kasbiy rivojlanish kuni (KRK) va 36 soati Kasbiy rivojlanish soati (KRS) tadbirlariga ajratildi. Har bir tadbir o’rtacha 3 soat davom etishi belgilandi. Jarayonga respublikadagi barcha fransuz tili fani o’qituvchilari jalb etildi. Fransuz tili yo’nalishida tajribali mutaxassislardan iborat 30 nafar mentor Fransiyaning Nitsa shahridagi Frankofoniya til markazida bir oy davomida malaka oshirib qaytdi. Ushbu xizmat safari doirasida o’zbekistonlik pedagoglar olgan bilimlarini KRK/KRS tadbirlarida o’z hamkasblari bilan baham ko’rishdi. Dastur 12 ta asosiy mavzuni qamrab olib, ushbu yo’nalishlar orqali pedagoglarning kasbiy faoliyatini kompleks rivojlantirishni nazarda tutadi: **Darsni rejalashtirish va tabaqalashgan yondashuv.** Ushbu yo’nalishda o’qituvchilarga cheklangan vaqt sharoitida darsni samarali tashkil etish, o’quvchilarning individual xususiyatlari, bilim darajasi va o’rganish tezligini hisobga olgan holda moslashtirilgan dars rejasi-

ni tuzish ko’nikmalari shakllantiriladi. Tabaqalashgan yondashuv orqali bir sinfdagi turli darajadagi o’quvchilar bilan ishlash, topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko’ra farqlash hamda barcha o’quvchilarni faol o’quv jarayoniga jalb etish masalalari keng yoritiladi. **Motivatsiya va natijalar tahlili.** Ushbu bo’limda o’quvchilarning o’qishga bo’lgan qiziqishini oshirish omillari, ichki va tashqi motivatsiya turlarini aniqlash hamda ularni rivojlantirish usullari batafsil ko’rib chiqiladi. Shuningdek, o’quvchilarning erishgan natijalarini tizimli tahlil qilish, ularning yutuqlarini vizual va amaliy shakllarda namoyish etish orqali o’z-o’zini baholash va rag’batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish yo’llari ochib beriladi. **Nutqiy ko’nikmalarni rivojlantirish.** Bu yo’nalishda o’qituvchilarga chet tilini o’qitishda zamonaviy va samarali yondashuvlar asosida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari o’rgatiladi. Xususan, autentik materiallar asosida tinglab tushunish, o’qib tushunish hamda og’zaki nutqni rivojlantirish strategiyalari amaliy

mashg’ulotlar orqali mustahkamlanadi. O’quvchilarning tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo’llashiga alohida e’tibor qaratiladi. **Formativ baholash va qayta aloqa.** O’quv jarayonida baholashning zamonaviy yondashuvlari, xususan, formativ baholashning ahamiyati va afzalliklari keng yoritiladi. O’quvchilarga muntazam va maqsadga yo’naltirilgan qayta aloqa berish orqali ularning bilimini mustahkamlash, xatolar ustida ishlash va rivojlanish dinamikasini kuzatish usullari tushuntiriladi. Qayta aloqaning aniq, tushunarli va rivojlantiruvchi bo’lishi, shuningdek, o’quvchining faol ishtirokini ta’minlashdagi roli alohida ta’kidlanadi. O’quv dasturining muhim qismlaridan biri bu loyihaviy yondashuvdir. Bu o’quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilishi va hamkorlikda ishlash ko’nikmalarini rivojlantiradi. O’qituvchilar darsda o’quvchilarni kichik guruhlariga bo’lib, aniq mahsulot (hisobot, taqdimot, rasm) yaratishga yo’naltirishni o’rganadi. Tadbirlar natijasida:

- ✓ pedagoglarning metodik mahorati va lingvistik kompetensiyalari oshdi;
- ✓ darslarda zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektidan samarali foydalanish yo’lga qo’yildi;
- ✓ o’quvchilarning darsga bo’lgan motivatsiyasini aniqlash va ularni formativ baholash tizimi takomillashdi;

Xalqaro tajriba va mahalliy ehtiyojlar uyg’unligi asosida tashkil etilgan ushbu tizim kelajakda fransuz tili ta’limi sifatini tubdan yaxshilash va xalqaro reytinglarda pedagoglarimizning o’rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Gulmira JO’RAYEVA,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
Metodik xizmat ko’rsatish bo’limi fransuz tili metodisti

O’ylar

Zamon o’zgarar ekan, ustozning o’y-xayollari, tashvishlari va ilhomi ham yangicha tus oladi. Bugungi o’qituvchi kechagidan farq qiladi. U nafaqat bilim beruvchi, balki ijodkor hamdir. Uning satrlarida attestatsiya hayajoni, kundalik “keraklar”ning bitmas ro’yxati, oila va kasb o’rtasidagi nozik muvozanat aks etadi.

O’qituvchi tashvishlari...

Murakkab, ammo serma’no kechinmalarini kulgu ostiga olib, she’rga solgan ustozlar aytishuvini siz, aziz mushtariylarga taqdim etishni lozim topdik.

Sardor TOSHBO’LOV:

Attestatsiyaga borishim kerak, Oliy toifani aniq olishim kerak. Do’konlarga borib, bozorlik qilib, Ustozlarga choy-poy qilishim kerak.

Erkinjon YARASHEV:

Men ham attestatsiyadan o’tishim kerak, Oliyini bir yamlab yutishim kerak. Lek ulardan ham eng avvalosi – Men bir yaxshi inson bo’lishim kerak.

Nargiza BEKNAZAROVA:

Juda charchadim, uxlashim kerak, Ertalab ertaroq turishim kerak. Bir oy dam oldim, malakam oshib, Endi nafas olmasdan ishlashim kerak.

Hulkar MAHMUDOVA:

Oliyda doimiy bo’lib olganman, 70 ni olay deb yotib olganman. O’qiganim bilan kirmas kallaga, Baland dorga, hamkasblar, osilib olganman.

Testolog savolni qiyvorgan-da, O’qituvchini o’ylamay tuzvorgan-da, “Oson” savollardan juda ko’p berib, Ustozlar yo’lini “ochvor”gan-da.

Dilfuza XALILOVA:

Asablarning dushmani, ko’zning nami – kredit, Teshik cho’ntak odamning oylik g’ami – kredit. Hojatbarordek kelib, qoldirding faqat g’urbat, Ozib ketdim o’ylovdan, yeding meni, kredit...

Ziyoda MO’YDINOVA:

Hali juda ko’p ilm olishim kerak, Dillarga ma’rifat solishim kerak. Ustozlarim kabi tezroq men ham, Tajribali ustoz bo’lishim kerak.

“Ma’rifat” muxbiri
Fayoza AVLAYEVA
to’pladi.

Tajriba, sinov, natija

Muhim bosqich

Farzandingiz 6 yoshga to'lgan bo'lsa, u hayotidagi eng muhim va hayajonli davr – maktab ostonasiga yaqinlashmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda maktabga tayyorlov tizimidagi yangiliklar va uning kelgusi o'quv yilidan yanada takomillashtirilishi bu yo'nalishdagi o'zgarishlarga nisbatan qiziqishni tobora o'ttirayapti.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimida muhim islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilib, bir yillik tayyorlov guruhleri umumiy ta'limning dastlabki bosqichi

ga tayyorlov guruhlarini tashkil etishga ruxsat berilgan.

“Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident farmoni bilan 2026-2027-o'quv yilidan boshlab Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida barcha turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan tarbiyalanuvchilarining rivojlanish xaritasi yuritiladi. Shuningdek, maktabga tayyorlov guruhlarini tamomlagan bolalarga **maktabga tayyorgarlik xaritasi** asosida bir yillik **elektron sertifikat berishni** yo'lga qo'yish belgilangan. Aytish kerakki, yurtimizda 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va ularni sertifikatlash tizimi boshlang'ich ta'limga o'tishdan oldingi bosqich sifatida

dan belgilanib, mikrohududdagi maktabga o'rinlar sonidan qat'i nazar, maktab yoshidagi bolalar qabul qilinadi. Mikrohududdan tashqari maktabdagi bo'sh o'rinlar soni elektron ariza yaratish vaqtida ota-onalarga tizim orqali ko'rinib turadi. Bolalar o'z yashash manziliga biriktirilgan maktabga qabul qilinadi, ba'zan tegishli tuman (shahar) hokimligi qarori bilan boshqa maktablarga yo'naltirilishi mumkin. Bunda ota-onalarga yaqin hududdagi ta'lim tiliga mos maktablar tavsiya qilinadi.

Ayni paytda elektron qabul joriy qilingan maktab va hududlar soni kengaytirilib, my.maktab.uz elektron platformasi zamonaviy dizayn hamda foydalanish imkoniyati bilan takomillashtirilmoqda.

Ta'lim barcha uchun

Inklyuziv ta'lim joriy etilgan ta'lim muassasalarida nogironligi bo'lgan bolalarning mustaqil harakatlanishlari uchun davlat budjeti, xalqaro loyihalar hamda homiylik mablag'lari hisobidan respublikadagi har bir 208 ta tuman (shahar)da namunaviy shaklda “to'siqsiz muhit” yaratildi va bu jarayon doimiy davom ettirilmoqda.

Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan birgalikda kasalligi tufayli uyda ta'lim olayotgan 14 568 nafar o'quvchining 30 foizi (4370 nafari)ni umumta'lim maktablariga yo'naltirish rejalashtirilgan.

– Alohida ta'lim ehtiyojlari (nogironligi) bo'lgan bolalarni ta'lim muassasalariga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori talablari asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari huzurida yagona psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar (PTPK) tomonidan amalga oshiriladi, – deydi vazirlikning Inklyuziv ta'lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i Ro'zibek To'rayev. – Bunda komissiya bolaning alohida ta'limga bo'lgan ehtiyojlari asosida tegishli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti, qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ixtisoslashtirilgan va inklyuziv guruhlariga, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga, inklyuziv sharoitda ta'lim olishi uchun umumta'lim tashkilotiga va umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga, “G'amxo'rlik” guruhleri va “Muruvvat” nogironligi bo'lgan bolalar uchun internat uylariga (shu jumladan, kunduzgi parvarishlash guruhlariga), imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumlarga, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan kunduzgi parvarish xizmatiga, ilk rivojlanish markazlarining “maxsus maktabgacha ta'lim xizmati” modeliga yuborish hamda uy sharoitida yakka tartibda ta'lim olishga jalb qilish uchun xulosa beradi.

Alohida ta'lim ehtiyoji bor bolalar agar inklyuziv ta'limga yo'naltirilsa, ularga ta'lim muassasalarida o'z tengdoshlari qatorida sifatli ta'lim va tarbiya olishlari uchun qulay sharoit yaratish muhim. Dastlab muassasaga qabul qilinayotgan bolaning nuqsoni bilan bog'liq ehtiyojiga qarab zarur jihoz – maxsus parta va stul, erkin harakatlanishi uchun binoda pandus va tutqichlar, ichki hojatxona, zarur didaktik materiallar bilan jihozlangan korreksion xona va individual tarzda shug'ullanishi uchun maxsus pedagog yoki assistent xodim ajratiladi.

Tibbiy xulosa bilan ta'lim olish yoshiga yetgan bola ta'lim muassasasining birortasiga (umumta'limda inklyuziv shaklda yoki alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatlarga) chiqish imkoni bo'lmasa, ularga uyda yakka tartibda ta'lim olish imkoniyati ham mavjud.

Fayoza AVLAYEVA,
“Ma'rifat” muxbiri

FARZANDINGIZ 6 YOSHDAMI?



sifatida qaralmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish sezilarli darajada oshdi. Jumladan, 2016-yilda bu ko'rsatkich 27,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, hozirga kelib 78 foizga, 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov qamrovi esa 98 foizga yetkazildi.

Kelajak sari ilk qadam!

Har yili “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi hamda 2022-yil 1-iyundagi “Maktab ta'limi tizimida davlat xizmatlari ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarorlariga muvofiq bolalar umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfiga qabul qilinadi. “Ta'lim to'g'risida”gi qonunining 9-moddasida ham bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfiga qabul qilinishi belgilangan.

2026-2027-o'quv yilida 2019-yilning 1-yanvaridan 31-dekabr sanasiga qadar tug'ilgan bolalar umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-sinfiga qabul qilinadi.

– Bugungi kunda respublikamizda 739 ming nafardan ortiq 6 yoshli bola bo'lib, ulardan 726 ming nafardan ortiq maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan, – deydi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi boshlig'i Shohsanam Mahammadjonova. – Bog'chaga bormaydigan 6 yoshli bolalar va ularning ota-onalari uchun qulaylik yaratish maqsadida bir yillik maktabga tayyorlov guruhleri **maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari va boshqa ijtimoiy soha obyektlarida to'liq yoki qisqa muddatli tartibda tashkil etilmoqda.** Shuningdek, maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlariga ham bir yillik maktab-

joriy etilayotgan muhim islohotdir. Chunki ko'plab xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda, umumiy o'rta ta'lim 12 yillik tartibda amalga oshiriladi, natijada O'zbekistondan chet davlatlarga o'qishga borgan talabalar bizda umumiy o'rta ta'lim 11 yil bo'lgani sababli oliy ta'lim muassasasida 1 yillik tayyorgarlik (foundation year) da o'qishga majbur bo'lishayapti. Bu esa yurtdoshlarimizga qo'shimcha to'lov va qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Shuning uchun maktabga tayyorlov guruhlaridan bolalarga bir yillik maktabga tayyorlovdan o'tganlik to'g'risida davlat namunasidagi elektron sertifikat beriladi. 1 yillik maktabga tayyorlangani haqidagi ma'lumot 11 yillik umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnomada qayd etiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2027-2028-o'quv yilidan boshlab, ta'lim sifatini oshirish va yanada samarali tashkil etish maqsadida maktabga tayyorlov guruhlarida ta'lim jarayonlari oliy ma'lumotli pedagoglar, shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchi bosqich talabalari tomonidan olib boriladi.

Qabul – 2026

O'quvchilarni 1-sinfga qabul qilish jarayoni 2 bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich – 20-iyundan 31-iyulgacha maktablarga biriktirilgan mikrohududda yashovchi bolalarni qabul qilishga ustuvorlik beriladi. Keyin bo'sh o'rinlar bo'yicha boshqa mikrohududdagi bolalar maktabga qabul qilinadi. Bunda maktabning o'quvchi o'rni, pedagog kadrlar bilan ta'minlangani inobatga olinadi.

– Mikrohududdan tashqaridagi maktabga faqat ikkinchi bosqichda (1–31-avgust oralig'ida) ariza yuboriladi, – deydi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi mas'ul xodimi Nodir Hayitov. – Qabul kvotasi hududiy boshqarmalar tomoni-

Xalqaro tajriba

Maktabgacha ta'limga qaratilgan e'tibor – kelajak uchun tikilgan uzoq muddatli investitsiya hisoblanadi. Bolalarning erta yoshdan har tomonlama rivojlanishini ta'minlash orqali nafaqat ta'lim sifati, balki jamiyat taraqqiyotiga ham erishish oson kechadi.

Masalan **Finlandiya** ta'lim tizimi dunyoda eng ilg'or deb e'tirof etiladi. Bu mamlakatda bolalar maktabga 7 yoshdan boradi. Maktabgacha ta'lim bosqichi esa nihoyatda puxta yo'lga qo'yilgan. Asosiy e'tibor bolalarning rivojlantiruvchi o'yinlar orqali bilim olishi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini sayqallashiga qaratilgan. Shuning uchun bugungacha Finlandiyada savodxonlik darajasi yuqori, ta'lim sifati esa barqaror darajada ravnaq topib kelmoqda.

Fransiyada bolalar 3 yoshdan boshlab majburiy bog'chaga borishadi. Eng muhim jihati ushbu tizimning davlat tomonidan to'liq moliyalashtirilishi barcha bolalarning teng imkoniyatlariga ega bo'lishini ta'minlaydi. Natijada mamlakatda maktabgacha ta'lim bilan qamrov deyarli 100 foizga yetgan. Bu esa keyingi ta'lim bosqichlarida bolalarning tayyorgarlik darajasini sezilarli oshiradi.

Janubiy Koreya ham maktabgacha ta'lim tizimiga katta ahamiyat qaratayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Bu davlatda bolalarni erta yoshdan boshlab o'qitish va rivojlantirishga katta miqdorda investitsiya yo'naltiriladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar keng qo'llanilib, bolalarning raqamli savodxonligi ham rivojlantirib boriladi. O'z navbatida Koreyaning mediasavodxon o'quvchilari xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarni qayd etish bilan birga, mamlakat iqtisodiyoti bilimli yoshlar bilan jadal rivojlanmoqda.

2026-2027-o'quv yilida 2019-yilning 1-yanvaridan 31-dekabr sanasiga qadar tug'ilgan bolalar umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-sinfiga qabul qilinadi.




“AYLANMA HARFLAR” METODI

3-qadam. Oynada hosil bo'lgan ko'rinishning chap tomonidagi namunalardan birini tanlab, "Text to layout" degan qismiga o'zimizga kerakli matn yoki parchani yozamiz va ekranning pastki o'ng tomonida joylashgan "Download" yozuvini belgilaymiz.



OSBNUIM											
DRELFZIRANA											
YIATNOX											
AHTUMT											
URMMAH											
LHLOILKA											
YANOMH											
QFIRA											
INORFA											
SEORM											
IJAYONT											



Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, diqqatini oson jamlashga yordam beradi. Shunday ekan, biz ustozlar XXI asr talablariga javob bera oladigan bo'lishimiz va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan o'rinli foydalanib, o'quvchilarga ham to'g'ri foydalanishni o'rgatmog'imiz darkor.

Mashhura ASADOVA,
Vobkent tumanidagi
32-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi



Dolzarb mavzu

Xususiy universitetlarda ta'lim qanday?

Bugungi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida yoshlar masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, xususiy universitetlardagi ta'lim sifati, yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishi va ularni mas'uliyatli hamda mehnatga layoqatli shaxs sifatida shakllantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

So'nggi yillarda xususiy universitetlar soni keskin o'tib bormoqda. Bu holat ta'lim tizimida raqobat muhitini shakllantirib, talabalarga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Xususiy universitetlar ko'p hollarda zamonaviy o'qitish metodlari, xalqaro dasturlar va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim bilan ajralib turadi. Biroq shu bilan birga, ba'zi hollarda ta'lim sifatining barqaror emasligi, talabalarining bilim olishga bo'lgan yondashuvidagi sustkashlik ham kuzatilishi mumkin. Shu bois, ta'lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki talabalarda mas'uliyat va intizomni shakllantirishga ham e'tibor qaratishi lozim.

Yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishi esa alohida muhokamaga arziydi. Axborot texnologiyalari rivojlangan bugungi kunda ko'plab yoshlar vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishga moyil bo'lib qolmoqda. Bu esa kitob mutolaasining kamayishiga olib kelmoqda. Vaholanki, kitob inson dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va ma'naviy barkamollikni ta'minlaydi. Shu sababli, ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyat vakillari yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishlari kerak. Kitobxonlikni targ'ib qiluvchi tadbirlar, adabiy uchrashuv va kitob yarmarkalari bu borada samarali vosita bo'lishi mumkin.

Yoshlarni mas'uliyatli va mehnatga layoqatli qilish masalasi esa tarbiya va ta'lim uyg'unligiga bog'liq. Bu jarayon oiladan boshlanadi. Ota-ona farzandiga mehnatsevarlik, intizom va javobgarlik kabi fazilatlarini yoshlikdan singdirishi lozim. Ta'lim muassasalari esa nazariy bilim bilan birga, amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga ahamiyat berishi kerak. Masalan, talabalarni ishlab chiqarish amaliyotlariga jalb qilish, loyiha ishlarini tashkil etish ularning mehnatga bo'lgan munosabatini shakllantiradi.

Shuningdek, yoshlarda maqsad qo'ya olish va unga intilish ko'nikmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Maqsadsiz inson rivojlanmaydi. Shu bois, yoshlarga to'g'ri yo'nalish berish, ularni ruhlantirish va qo'llab-quvvatlash jamiyatning barcha qatlamlari oldidagi vazifadir.

Xususiy universitetlarda ta'lim samaradorligini oshirishda talabalarining nafaqat kasbiy bilimlari, balki ularning ma'naviy dunyosi va ijodiy salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Renessans ta'lim universiteti talabalari misolida bu holat yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, iqtisod, inson resurslarini boshqarish va filologiya yo'nalishlarida tahsil olayotgan yoshlar orasida badiiy kitobga bo'lgan qiziqish tobora ortib borayotgani quvonarlidir. Ular faqat darsliklar bilan cheklanib qolmay, jahon va milliy adabiyot namunalari ham mutolaa qilish orqali o'z dunyoqarashlarini kengaytirmoqda. Bu jarayonda ingliz tilini o'qitish darslarining amaliy xususiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday darslar davomida talabalarining til ko'nikmalari bilan bir qatorda ma'naviy va madaniy saviyasini oshirish imkoniyati ham mavjud. Xususan, dars jarayonida 10–15 daqiqa mobaynida talabalarni jahon adabiyoti namunalari hamda turli badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir. Bu esa talabalarining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ijodkorlikka bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, talabalarining ijodkorlikka bo'lgan intilishi ham alohida e'tiborga loyiq bo'lib, turli esse, maqola va ijodiy ishlar orqali ular o'z fikrlarini erkin ifoda etish ko'nikmasini shakllantirmoqda. Bu esa ularning nafaqat mutaxassis, balki har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyatga ega.

Buni oddiy targ'ibot bilan emas, balki darsning o'ziga singdirish orqali amalga oshirish kerak. Ya'ni talabalar kitobni majburiyat emas, qiziqarli tajriba sifatida qabul qilishi muhim.

Avvalo, siz o'qituvchi sifatida shaxsiy namuna ko'rsatishingiz lozim. Agar dars davomida o'qib chiqqan kitoblaringizdan qisqa, qiziqarli parchalar, hayotiy misollar keltirsangiz, talabalar tabiiy ravishda qiziq boshlaydi. “Bu kitobni o'qinglar” deb aytgandan ko'ra, “men kecha shunday bir joyini o'qidim...” deb hikoya qilish ko'proq samara beradi.

Ikkinchidan, kitobni dars bilan bog'lash kerak. Masalan, ingliz tili darsida qisqa hikoya, dialog yoki mashhur asarlardan parchalarni muhokama qilish mumkin. Bu orqali talabalar ham tilni o'rganadi, ham adabiyotga qiziqishi ortadi. 10–15 daqiqalik “mini kitob vaqti” juda yaxshi samara beradi.

Uchinchidan, erkinlik berish muhim. Hammaga bir

xil kitobni majburlab o'qitmasdan, tanlov imkonini yaratish: kimdir roman o'qiydi, kimdir psixologiya, kimdir biznes kitoblarini. Ayniqsa, iqtisod va HR yo'nalishi talabalariga o'z sohasiga yaqin kitoblarni tavsiya qilish samarali bo'ladi.

To'rtinchidan, kichik ijodiy topshiriqlar katta natija beradi. Masalan:

- “O'qigan kitobingizdan eng qiziq 3 fikr”.
- “Qahramon o'rnida siz nima qilar edingiz?”.
- “1 daqiqalik kitob prezentatsiyasi”.

Bu ishlar talabalarni o'qishga majburlamaydi, balki ularni o'qishga “yetaklaydi”. Yana bir samarali usul – muhit yaratish. Guruhda kitobxonlik muhiti bo'lsa, talabalar bir-biriga ta'sir qiladi. Masalan, kichik “kitob klubi”, o'yneng eng yaxshi o'quvchisi yoki darsda 5 daqiqalik kitob almashish suhbatlari.

Eng muhimi, bosim qilmaslik. Agar kitob o'qish jazo-ga aylansa, qiziqish yo'qoladi. Aksincha, uni rag'bat, mu-loqot va qiziqarli jarayonga aylantirish kerak.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, dars jarayonida talabalarni kitob o'qishga jalb etish maqsadida bir qator amaliy metodlardan foydalanib kelinmoqda. Xususan, ingliz tili darslarining amaliy xususiyatidan unumli foydalan-gan holda, har bir mashg'ulotda 10–15 daqiqa davomida jahon adabiyoti namunalari va turli badiiy asarlar bilan tanishtirish amaliyoti joriy etilgan. Bu jarayonda talabalar kitoblardan eng qiziqarli parchalar o'qib eshittiriladi, qisqacha mazmunlar muhokama qilinadi va ularning shax-siy fikrlari so'raladi.

Shuningdek, talabalarga mustaqil tanlov imkoniyati berilib, har kim o'z qiziqishiga mos kitobni o'qishiga sharoit yaratiladi. Darsdan tashqari vaqtlarda esa ularga o'qil-gan asarlar yuzasidan qisqa esse yozish, taassurotlarini bayon qilish yoki guruh oldida taqdimot qilish kabi ijodiy vazifalar beriladi. Bunday yondashuv talabalarda nafaqat kitob o'qishga qiziqish uyg'otadi, balki ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o'z fikrini erkin ifoda etish ko'nik-malarini ham rivojlantiradi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu metodlar talabalar tomonidan ijobiy qabul qilinmoqda. Dars jara-yonida ularning faolligi ortmoqda, ayniqsa, kitoblar haqida fikr almashish, o'zaro tavsiya berish kabi holat-lar ko'paymoqda. Ayrim talabalarda esa muntazam kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqish shakllana boshlagani ham kuzatilmogda.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarini nafaqat til o'rgatish vositasi, balki ma'naviy-tarbiyaviy platfor-ma sifatida tashkil etish orqali talabalarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mumkin. Bu esa o'z navbatida yoshlarni har tomonlama rivojlangan, bilimli, ijodkor va mas'uliyatli shaxs etib tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Qandilat YUSUPOVA,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti

Raqamli dunyoda navoiyona tafakkurni saqlab qolish



“O'zbekiston – 2030” strategiyasining tub mohiyati nafaqat iqtisodiy taraqqiyot, balki yoshlarni o'ylaydigan, izlanadigan va ijtimoiy mas'uliyatli insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarimoqda va ta'lim ushbu islohotlarning markazida turibdi. Biroq haqiqiy muvaffaqiyatga erishish uchun zamonaviy texnologiyalarni Alisher Navoiy bobomiz targ'ib qilgan ma'naviy mezonlar bilan uyg'unlashtirish zarur.

Hozirgi kunda “TikTok” va “Insta-gram” kabi ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning diqqatini kitobdan uzoqlashtirmoqda. Raqamli dunyo talabani tezkor o'ylashga o'rgatayotgan bo'lsa-da, afsuski, chuqur mulohaza yuritish va tahlil qilish madani-yati ortda qolmoqda. Navoiy bobomiz “Mahbub ul-qulub” asarida ta'kidlagani-dek, ilm mohiyatini anglamaslik yuzaki fikrlovchi va oson taslim bo'ladigan avlod-ning ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ta'lim tizimidagi eng muhim omil – bu insoniylik, samimiyat va muloqot-dir. O'qituvchining yuragida ishonch va muhabbat bo'lmasa, eng zamonaviy tex-nologiyalar ham kutilgan natijani bermay-di. Navoiy pedagogikasida ustoz avval talabaning qalbiga yo'l topishi lozimligi

uqtiriladi. Zero, ta'lim – bu shunchaki ax-borot uzatish emas, balki insondan insonga o'tadigan nurdir.

Ammo bugun o'qituvchilik kasbi yana-da mas'uliyatli va og'ir bo'lib bormoqda. Pedagog dars berishdan tashqari turli hi-sobotlar, onlayn baholash tizimlari va elektron kundaliklar bilan band. Har kuni o'nlab dars va yuzlab daftarlar bilan ish-lash o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatini so'ndirib qo'ymoqda. Strategiya doirasida o'qituvchini qo'llab-quvvatlash jamiyat-ning asosiy vazifasi bo'lishi shart.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intel-lekt, jumladan ChatGPT faqat yordamchi vositalar xolos. Kompyuter bilim berishi mumkin, lekin u hech qachon tarbiya va ruh bera olmaydi. Talaba internetni bilim

manbayi sifatida ko'rishi kerak, ammo undagi chalg'ituvchi omillardan ehtiyot bo'lishi lozim. Bilim olish jarayoni faqat “ko'rinish berish” (self-marketing) emas, balki ichki kamolotga xizmat qilishi shart.

Oliy ta'lim muassasalaridagi ax-borot-resurs markazlari endilikda shun-chaki kitob saqlanadigan joy emas, balki talaba muvaffaqiyati bilan bog'langan dinamik markazga aylanishi zarur. ARM-lar talabalarda mustaqil izlanish va tan-qidiy fikrlash madaniyatini shakllantirishi lozim. Sifatli manbalar bilan ta'minlan-magan talabaning o'qishdagi natijasi ham past bo'lishi tabiiydir.

Yoshlar auditoriyasiga samarali kirib borish uchun “tengdosh tili” alohida ahamiyatga ega. Volontyor talabalar to-monidan o'tkaziladigan “book-talk”lar va videoroliklar tengdoshlarini o'qishga undashda eng yaxshi motivatsiya manba-yidir. Bunday jonli o'qish muhiti talaba-niing tashkilotchilik va jamoaviy ishlash malakasini ham rivojlantiradi.

Zamonaviy talaba portretida axborot savodxonligi va plagiatdan qochish muhim kompetensiyaga aylangan. Ishonchli man-

bani tanish va iqtiboslash madaniyati talabaning ma'naviy halolligini ko'rsa-tadi. “BookCrossing” kabi loyihalar esa erkin fikr va erkin o'qish tamoyillarini birlashtirib, o'quv jarayonining “yashil zo-nasi”da haqiqiy kommunikativ hamjami-yatni shakllantiradi.

Bu jarayonda ota-onalarning ham o'rni beqiyosdir. Afsuski, ko'pchilik farzandin-ing o'qishini faqat ballar – “5” yoki “3” orqali baholaydi. Vaholanki, talaba bilimni raqamlar bilan o'lchab bo'lmasligini ang-lashi, tahlil qilish va izlanishni o'rganishi kerak. Ota-ona talabaning faqat telefonini emas, balki uning tafakkurini kuzatishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchiga e'tibor – bu jamiyatga e'tibor demakdir. Agar biz pedagogga munosib sharoit, ishonch va hurmat bersak, u jamiyatga bilim, ma'rifat va insoniylikni qaytaradi. O'zbekiston – 2030” strategiyasini amal-ga oshirish – bu yoshlarning tafakkurini ochish va raqamli dunyoda insoniylikni, Navoiyona ma'naviyatni saqlab qolishdir.

Dildora O'SAROVA,
TDYU Xorijiy tillar sho'basi
dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD)

Rektor minbari



Feruza MADRAHIMOVA,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti rektori, professor

13-14-may kunlari qadimiy va nav-qiron Buxoro shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarboyjon yetakchi ayollari muloqotining navbatdagi majlisi ana shunday yuksak maqsadlarga xizmat qilgan, muhim xalqaro platformalardan biri bo'ldi. Ushbu nufuzli forumda ishtirok etish, mintaqa davlatlarining faol, tashabbuskor va fidoyi ayollari bilan bir safda turish men uchun katta sharaf va mas'uliyatli bo'ldi.

Muloqot davomida yana bir bor amin bo'ldikki, bugungi kunda ayollar nafaqat oilaning tayanchi, balki jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi, ilm-fan, ta'lim, innovatsiya va xalqaro hamkorlikning faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Ular bilimli avlod bunyodkori sifatida ko'rilmogda. Xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o'rni tobora mustahkamlanib, ularning tashabbuslari mintaqa rivojiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

BU O'ZBEKISTON TAJRIBASI!

Mazkur Muloqot platformasi 2020-yili O'zbekiston tashabbusi bilan tashkil etilgani ham mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish borasida olib borilayotgan islohotlarning amaliy ifodasidir. Yurtimiz ushbu nufuzli Muloqotga 2021-yili raislik qilgan bo'lsa, joriy yilda esa ikkinchi bor mezbonlik qilayotgani O'zbekistonning mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, xotin-qizlar salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularning xalqaro maydondagi o'rini yanada yuksaltirish borasidagi qat'iy siyosati va yuksak ishonchga sazovor bo'layotganining yaqqol dalilidir.

Majlis davomida ayollarning ilm-fandagi yetakchiligi, innovatsion rivojlanishdagi o'rni, zamonaviy tahdidlar va ularning yechimlari kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi tezkor zamonda ilm-fan va innovatsiyalar taraqqiyotining asosiy drayveriga aylanayotgan bir paytda olima ayollarni qo'llab-quvvatlash, yosh

qizlarning ilmga qiziqishini oshirish va ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish eng muhim vazifalardan biridir.

Ayniqsa, Ozarboyjon Respublikasining ushbu Muloqotga qo'shilgani platformaning xalqaro nufuzini yanada oshirib, mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash yo'lida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatlarimiz



o'rtasidagi madaniy, ilmiy va ijtimoiy aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu Muloqotda ishtirok etar ekanman, yana bir haqiqatni chuqur his qildim: ayollarning ilm-fandagi faolligi – bu faqat gender tengligi masalasi emas, balki davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir. Olimalarning ilmiy salohiyati, ularning intellektual imkoniyatlari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali

biz mintaqaning innovatsion kelajagini barpo eta olamiz.

Bugungi globallashuv va murakkab geosiyosiy jarayonlar sharoitida davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, ochiq muloqot va amaliy hamkorlik har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida keyingi yillarda shakllanayotgan yaqin qo'shnichilik muhiti, do'stlik va strategik sheriklik munosabatlari mintaqa taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Ana shu ezu jarayonlarda ayollarning faolligi, tashabbuskorligi va birlashtiruvchi kuchi alohida e'tiborga loyiqdir.

ILM – ATOMDAN KUCHLI

Muloqot doirasida tashkil etilgan “Ilm-fanda ayollar yetakchiligi: hozirgi zamon tahdidlari, innovatsion yechimlar va ilmiy hamkorlik” mavzusidagi olima ayollar forumi bugungi davr talablariga to'liq javob beradigan dolzarb va strategik ahamiyatga ega maydon bo'ldi. Ushbu muloqotda ilgari surilgan g'oya va tashabbuslar mintaqaning ertangi taraqqiyoti aynan ilm-fan, innovatsiya va intellektual salohiyat bilan chambarchas bog'liq ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Oila qurish, ro'zg'or tebratish, farzand tarbiyalash uchun bilim, malaka, ko'nikma zarur. Ilm olish erkakka ham, ayolga ham farz qilingan. Bu ta'limotdan bexabar nashar xalqaro nufuzini yanada oshirib, mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash yo'lida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatlarimiz

Bugun dunyo misli ko'rilmagan o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda.

HAR BIR BUYUK SHAXS ORTIDA AYOL BOR

Oqila, odobli, soliha ayollargina salohiyatli farzandlarni tarbiyalay oladi.

Iqlim o'zgarishi, suv resurslari taqchilligi, ekologik muammolar, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt va global sog'liqni saqlash bilan bog'liq tahdidlar insoniyat oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bu murakkab jarayonlarda ilm-fan hal qiluvchi kuchga aylanmoqda. Eng muhimi, bu yo'lida olima ayollarning faolligi va yetakchiligi tobora ortib boryapti.

Muloqot davomida Markaziy Osiyo va Ozarboyjon davlatlari olimalari tomonidan ilm-fan, innovatsion texnologiyalar hamda sun'iy intellektni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani ta'kidlan-

Fahm-farosatli, ilmiy, dono ayollar nafaqat farzandiga, balki turmush o'rtog'iga ham har sohada maslahatg'o'y, hamfikir, dastyor, ko'makdoshdirlar. Arablarda: “Har bir buyuk shaxs ortida ayol bor”, degan maqol bor. Bu bejiz aytilmagan.

Bugungi kunda ilm-fanda ayollar faqat tadqiqot olib boruvchi mutaxassis emas, balki innovatsion g'oyalar muallifi, texnologik taraqqiyot tashabbuskori va jamiyatning intellektual rivojlanishiga xizmat qilayotgan yetakchi kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt, ekologiya, tibbiyot, raqamli texnologiya

yalar va “yashil” iqtisodiyot kabi yo'nalishlarda ayollar ishtirokining ortib borayotgani quvonarlidir.

Shuningdek, yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, talabalar va doktorantlar uchun ustoz-shogird tizimini rivojlantirish, ilmiy almashinuv dasturlarini kengaytirish bo'yicha bildirilgan fikrlar kelajak uchun muhim investitsiya hisoblanadi. Chunki har qanday taraqqiyotning asosi – bilimli, izlanuvchan va innovatsion fikrlaydigan yosh avlodidir.

Shuningdek, 14-may kuni Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi munosabati bilan Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan murojaat yo'llangan va ushbu murojaat Prezident Adminstratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva tomonidan o'qib berilgani ayollarga yuksak iftixor tuyg'usini baxsh etdi.

Davlatimiz rahbari murojaatida Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, qadriyatlarini bir-biriga yaqinligi va bu mintaqada barcha sohalarni o'zaro birlashtiradigan, turli millat ayollarini hamkorlikka chorlaydigan omil ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish Yangi O'zbekiston islohotlarining ustuvor yo'nalishiga aylanganligi qayd etilgan.

Ayollari e'zozlangan, qadrlangan shunday yurtda yashayotganimiz bizning baxtimizdir. Bugun yurtimizda – Yangi O'zbekistonimizda biz ayollarga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, ilmiy faoliyatni yuritish, boshqaruv lavozimlarida munosib o'rin egallashi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar mamlakatimiz taraqqiyotining eng muhim mezonlaridan biriga aylanmoqda.

Ayniqsa, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rini mustahkamlash faqat siyosiy vazifa emas, balki erkin va farovon jamiyat barpo etish yo'lidagi izchil demokratik yengilinishlarning ajralmas qismi hamdir”, degan fikrlari e'tiborga loyiqdir. Ushbu so'zlar bugungi islohotlarning strategik yo'nalishini aniq ifodalab, ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bugungi kunda yurtimizda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga, tadbirkorlik sohasida 37 foizga, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetib, O'zbekiston bu ko'rsatkich bo'yicha xalqaro reytinglarda yetakchi mamlakatlari qatoridan joy olgan. Ijro hokimiyati tizimida rahbar ayollar safining kengayishi va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlaridagi ishtirokining ortishi davlat tomonidan qarorlar qabul qilinishida inkluzivlikni ta'minlamoqda. Eng muhimi, murojaatda oliy ta'lim muassasalari talabalar orasida ayollar ulushi keskin ortgani, jumladan, magistraturada tahsil olayotgan xotin-qizlarning soni oxirgi 5 yilda 11 karra ko'payganligi e'tirof etilgan. Shu o'rinda, biz ham universitetimizda faoliyat



yuritayotgan xotin-qizlarning intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash, ilm-fanga qiziquvchi yosh qizlar safini kengaytirish, ularning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish va xalqaro maydonda munosib o'rin egallashi uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishni o'zimizning ustuvor vazifalarimizdan deb bilamiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumiga yo'llangan murojaatda: “**Xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish Yangi O'zbekiston islohotlarining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Zero, ayolga e'tibor – bu, avvalo, inson shaxsiga, uning qadriga bo'lgan yuksak ehtiromning oliy namunasidir**” deya alohida ta'kidlangani barcha xotin-qizlar qatori biz, oliy ta'lim tizimi vakillari uchun ham xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini yanada mustahkamlash yo'lida mas'uliyat bilan faoliyat yuritishga undovchi muhim dasturlamal bo'lib xizmat qiladi.

“AYOLGA E'TIBOR – BU, INSON SHAXSIGA E'TIBOR”

Davlatimiz rahbari ilgari surayotgan ushbu fikr ortida katta ma'no mujassam.



Chunki bugungi murakkab davrda xotin-qizlarning iqtisodiyotdagi ishtiroki va ulushini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ta'sirini kuchaytirish, ularning intellektual salohiyatidan unumli foydalanish dolzarb vazifa sanaladi. Ayniqsa, ish-bilamon ayollar o'rtasidagi ko'p qirrali sheriklikni kengaytirish, biznes forumlar va xalqaro treninglarni yo'lga qo'yish, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida yangi startap loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan platforma yaratish tashabbuslari bugungi zamon talablari bilan hamohangdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ilm-fan, ta'lim, boshqaruv va tadbirkorlikdagi faolligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar o'zining amaliy natijalarini bermogda. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlar sonining ortib borayotgani, magistratura bosqichida ularning safi so'nggi besh yilda 11 karra ko'paygani yurtimizda ayollar ta'limiga qaratilayotgan yuksak e'tiborning yorqin ifodasidir. Masalan, farzandini ilm-ma'rifatli, salohiyatli qilib tarbiyalash uchun ona ham ma'rifatli bo'lishi kerak. Buni bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar ham tasdiqladi: er-xotinning saviyasi bir-biriga ta'sir o'tkazishini ilm-

fan isbotladi. Chunki ular o'rtasida ruhiy aloqa bor, nikoh rishtasi, shar'iy suhbat, muosharat, yaqinlik bor. Ana shu munosabatlar asnosida inson tasavvur qila olmaydigan sinxron aqliy muloqot yuzaga kelishi, bu ikki inson, ya'ni er va xotinning tabiati, fe'l-atvori, aqli, tafakkuri, ongi o'zaro ta'sirlanishi aniqlandi.

Bu borada Urganch davlat universitetida ham xotin-qizlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ta'lim-tarbiyada va undan keyingi bosqich ilm-fanga qiziquvchi yosh qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish, innovatsion va startap tashabbuslarini rag'batlantirish hamda xalqaro maydonda munosib o'rin egallashi uchun barcha imkoniyatlarni yaratishga alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Ayni paytda universitet professor-o'qituvchilari va talabalari tarkibining qariyb 65 foizini xotin-qizlar tashkil etishi ham bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarimizning amaliy natijasidir. Bu esa OTMda ayollar uchun teng imkoniyatlar, ochiq akademik muhit hamda qo'llab-quvvatlovchi ta'lim tizimi shakllanganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda Urganch davlat universitetida xotin-qizlar nafaqat ta'lim oluvchi sifatida, balki ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchi, ijtimoiy tashabbuskor, startap muallifi va yetakchi kadrlar sifatida ham faol ishtirok etib kelmogda. Ularning bilim va salohiyatini ro'yobga chiqarish maqsadida turli grant, tanlov, mentorlik dasturlari hamda xalqaro hamkorlik loyihalarini doimiy ravishda yo'lga qo'yilgan.

Bo'lib o'tgan ushbu nufuzli Muloqot va forum mintaqa rahbar ayollari va olimalari o'rtasida mustahkam ko'priklar yaratdi, desak mulolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi, bu kelajakda yangi innovatsion tashabbuslar, ilmiy va xalqaro hamkorlikning yangi bosqichiga zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Ma'murjon UMRZOQXO'JA
yozib oldi.

O'ZBEK IMLOSI TARIXIGA

Millatning o'zligini anglatuvchi eng muhim omillardan biri yozuvi va o'sha yozuvni tartibga soluvchi imlo qoidalaridir. Imlo harflarning tizimli tartibi, xalqning madaniy darajasi, siyosiy irodasi va milliy tafakkurining ochiq ko'zgusi sanaladi. Inomjon Azimovning Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Markaz tomonidan nashr etilgan monografiyasi o'zbek filologiyasida uzoq kutilgan, o'zbek imlosining murakkab, ziddiyatli va, shu bilan birga, jo'shqin rivojlanish yo'lini fundamental asosda yoritib bergan tadqiqot bo'ldi. Monografiyani mutolaa qilar ekanmiz, muallifning tilshunos olim, millat ma'naviy merosining chinakam himoyachisi sifatidagi qiyofasini ko'ramiz. Tadqiqot bugungi kunda o'zbek tili taraqqiyotining yangi, hal qiluvchi bosqichida – latin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini takomillashtirish borasidagi bahslar butun jamiyatni qamrab olgan bir pallada e'lon qilingani bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

Bugun jamiyatda yuzaga kelayotgan imloviy chalkashliklar, savodxonlik darajasining pasayishi va alifbo islohoti atrofidagi turlicha qarashlarning aksariyati o'tmishdagi jarayonlarni chuqur bilmaslikdan kelib chiqadi. Inomjon Azimov asari orqali bu bo'shliqni to'ldiradi va bugungi kun imlo muammolarining yechimi o'tmishdagi tajribalarni xolis tahlil qilishda ekanligini ko'rsatib beradi. Muallif tarixiy ma'lumotlarni shuncha ki sanab o'tmasdan, o'zbek imlosining bir asrlik shakllanish dinamikasini konseptual tahlil qiladi. Imlo qoidalarini shakllantirish tilning ichki qonuniyatlari bo'lgan lingvistik omillar va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ya'ni ekstralingvistik omillar o'rtasidagi oltin muvozanatni topish san'atidir. Monografiyaning kirish qismidayoq muallif o'zbek tili tabiatiga xos xususiyatlarining yozuvda aks etishi naqadar og'riqli kechganini arxiv materiallari vositasida ochib berishni maqsad qiladi.

Monografiya o'zbek tilshunosligining darg'alari bo'lmish Abdurauf Fitrat, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy kabi olimlarning imlo borasidagi qarashlarini yangicha rakursda tahlil qiladi. Muallif har bir davrning yutug'i va xatosini o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy kontekstidan kelib chiqib, mutlaqo xolis baholaydi. Asarning uslubi akademik aniqlik bilan sug'orilgan bo'lsa-da, keng jamoatchilik uchun ham o'qishli va tushunarlidir. Keltirilgan noyob arxiv hujjatlarining fotonusxalari va hozirgi yozuvdagi tabdillari asarning ilmiy ishonchliligini mutlaq darajaga ko'targan. Muallif o'zbek imlosi tarixini to'rt asosiy burilish nuqtasiga, ya'ni isloh qilingan arab yozuvi, ilk lotin yozuvi, kirill yozuvi va mustaqillik davri lotin yozuvi bosqichlariga bo'lib o'rganishni taklif etadi. Bu tizim o'quvchiga umumiy manzarani aniq tasavvur qilish va har bir davrning o'ziga xos "lingvistik xarakteri"ni anglash imkonini beradi.


Inomjon Azimov imlo qoidalarini "jonli organizm" sifatida tasvirlar ekan, jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Qoidalar qog'ozda "o'lik holda" yotmaydi, til egalarning talaffuzi, yozish ko'nikmalari va umumiy madaniyatiga doimiy ravishda ta'sir ko'rsatadi. Muallifning tadqiqot konsepsiyasi shundan ibo-

ratki, o'zbek imlosining ilmiy-nazariy poydevorini qayta qurishda o'tmishdagi singarmonizm bahslaridan tortib, rus tili ta'sirida shakllangan me'yorlarga barcha jarayonlarni filtrlash kerakligini uqtiradi. Asar bugungi kundagi yuzaki "alifbo almashtirish" masalalariga emas, fundamental "milliy imlo mafkurasini yaratish" masalasiga bag'ishlangan.

Monografiya o'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda yaratilgan eng salmoqli asarlardan biri, mutaxassis-olimlar, ona tili taqdiriga befarq bo'lma-gan har bir ziyoli uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Inomjon Azimov o'zbek imlosi tarixini inventarizatsiya qilgan, millatning yozma nutq madaniyati qanday shakllanganini ilmiy jihatdan qayta tiklagan. Monografiya orqali o'zbek imlosi milliy o'zlikni anglash va madaniy taraqqiyot uchun kurash maydoni bo'lganini ko'ramiz. I.Azimovning bu xizmati o'zbek ma'rifatparvarlik an'analarning mantiqiy davomi, bugungi va kelajak avlod uchun bebaho manba bo'lib qoladi.

MANBASHUNOSLIK SALOHIYATI: ARXIV HUJJATLARI – TARIXIY HAQIQATNING ASOSIY MEZONI

Inomjon Azimov monografiyasining oddiy nazariy tadqiqot va umumiy tilshunoslik darsliklaridan ajratib turuvchi, ilmiy qiymatini bir necha barobar oshiruvchi bosh xususiyati nihoyatda mustahkam va boy manbashunoslik poydevoriga qurilganidir. Muallif o'zbek imlosi tarixini ma'lumotlarni to'plash yoki boshqa tadqiqotchilarning xulosalarini takrorlash orqali emas, uzoq vaqt davomida arxiv rastalarida saqlangan, ayrimlari mutaxassislar nazaridan mutlaqo chetda qolib ketgan birlamchi manbalar va "jonli" hujjatlar asosida qayta tiklaydi. Bu jarayonda muallif tilshunos, mohir arxivshunos va tarixchi sifatida namoyon bo'ladi. Asarda o'zbek imlosining genetik kodini ochib beruvchi qator tarixiy hujjatlar, xususan, 1919-yildan boshlab 2021-yilgacha davrdagi eng muhim qaror, loyiha va nizomlarning ilmiy muomalaga kiri-



tilishi o'zbek tilshunosligida o'ziga xos voqelikdir.

Asarning manbashunoslik tahlili markazida 1919-yilda nashr etilgan va milliy imlomizni tartibga solishdagi ilk rasmiy qadam bo'lgan "Bitim yo'llari" loyihasi turadi. Muallif bu hujjatning fotonusxasi hamda hozirgi yozuvdagi tabdilini taqdim etadi. Bu o'quvchiga jadidlar davri imlo tafakkurini bevosita his qilish, o'sha davr ziyolilarining tilimizni arab yozuvi doirasida qanday isloh qilmoqchi bo'lganini anglash imkonini beradi. Shuningdek, monografiyada Qayum Ramazonning 1931-yildagi "O'zbek tilining imlo qoidalarini" va 1935-yildagi "O'zbek tilining birlashgan imlo qoidalarini" loyihalarining keng ko'lamlil tahlili keltirilgan. Bu hujjatlar o'zbek imlosi tarixidagi eng dramatik va ziddiyatli davrning "guvohlari" sifatida asarning ilmiy ishonchliligini ta'minlaydi. I.Azimov bu hujjatlarni tahlil qilar ekan, har bir qoidaning nega o'zgargani, qaysi so'zlarning yozilishi qaysi sheva vakillari ta'sirida yoki qaysi mafkuraviy bosim ostida o'zgartirilganini aniq faktlar bilan isbotlab beradi.

Monografiyaning qariyb yarmi, ya'ni 183-sahifadan boshlab to oxirigacha bo'lgan qismi aynan ilova va hujjatlardan iborat ekanligi asarning amaliy qimmatini belgilaydi. Bu yerda o'zbek orfografiyasiga oid 1956-yilgi kirill yozuvi qoidalarini, 1993 va 1995-yillardagi lotin yozuviga o'tish haqidagi tarixiy qarorlar hamda 2021-yilda e'lon qilingan yangi tahrirdagi imlo qoidalarini loyihasini yaxlit holda ko'ramiz. Muallifning "tarixiy rekonstruksiya" mahorati shunda ko'rinadiki, har bir hujjatning asl nusxasini keltirish bilan birga bugungi kundagi tilshunoslik nuqtayi nazaridan ahamiyatini ham sharhlab boradi. Arxiv materiallarining bunday tizimli jamlanishi o'zbek tili tarixini o'rganuvchi yosh tadqiqotchilar uchun tayyor bibliografik manba bo'lib xizmat qiladi. Kitobdagi har bir fotonusxa milliy savodxonlik yo'lidagi kurashlarning muhridir. Ayniqsa, "Maorif va o'qitg'uchi" kabi tarixiy jurnallar sahifalaridan olingan bahslar, 1921-yildagi Toshkent va 1923-yildagi Buxoro qurultoylari materiallarining

tahlili asarga o'ziga xos ilmiy hayotiylik bag'ishlaydi. I.Azimov arxiv hujjatlarini oddiy "o'lik" dalil sifatida qoldirmaydi, bugungi imlo muammolariga argument sifatida ishlatadi. Masalan, bugun bizni qiynayotgan tutuq belgisi, bo'g'in ko'chirish yoki xorijiy so'zlar imlosi kabi masalalar bundan bir asr oldin qanday qo'yilgani va o'shanda qanday xatolarga yo'l qo'yilganini aynan mana shu birlamchi manbalar orqali ko'rsatib beradi. Bu o'quvchiga imlo oddiy qoidalar yig'indisi emas, davlat va millatning uzoq yillik intellektual mehnati mahsuli ekanligini anglatadi.

LINGVISTIK PARADIGMALAR TO'QNASHUVI YOKI SINGARMONIZM VA IMLOVIY ME'YORLAR TAHLILI

Inomjon Azimov monografiyasida o'zbek imlosi tarixi tilshunoslikning eng fundamental muammolari yechimi uchun kurash maydoni sifatida gavdalanadi. Muallif asarning bu qismida o'zbek tilining fonetik tabiatini yozuvda aks ettirish masalasi, xususan, singarmonizm(unlilar uyg'unligi) qonuniyatining imlodagi taqdirini markaziy o'ringa qo'yadi. Bu masala – o'zbek imlosi tarixining "asab tomiri" asarda 1920-yillardagi jo'shqin bahslar orqali mahorat bilan ochib berilgan. Muallif Abdurauf Fitrat va "Chig'atoy gurungi" a'zolarining o'zbek tili fonetik xususiyatlarini saqlab qolish yo'lidagi sa'y-harakatlarini, 6 ta yoki 9 ta unli tizimiga asoslangan imlo loyihalarini tahlil qilar ekan, bu bahslarning bugungi kun uchun ham dolzarb ekanligiga e'tibor qaratadi. Tadqiqotda 1934-yilgi Til va imlo qurultoyidan keyin o'zbek imlosidan singarmonizm qonuniyatining sun'iy ravishda chiqarib tashlanishi va natijada vujudga kelgan "qovushmagan" qoidalar ilmiy dalillar bilan tanqidiy ko'rib chiqiladi. I.Azimov o'zbek adabiy tilining shevalararo muvozanatini saqlashda imloning rolini baholar ekan, muayyan davrlarda tilning ichki qonuniyatlari emas, "qulaylik" yoki "soddalashtirish"



YANGICHA NIGOH

IMLO VA SIYOSAT: EKSTRALINGVISTIK OMILLARNING TILLARARO MUNOSABATLARDA AKSI

shiori ostida til tabiatiga yot me'yorlarning tiqishtirilganini arxiv materiallari orqali isbotlaydi. Ayniqsa, asarda morfologik va fonetik tamoyillarning o'zaro nisbati, o'zak va qo'shimchalar imlosidagi izchillik masalalari qiyosiy tahlil qilangani monografiyaning nazariy qimmatini belgilaydi.

Muallif o'zbek tili taraqqiyotining turli bosqichida imlo qoidalari qanday qilib lingvistik asosdan uzoqlashib, "o'rtacha" bir ko'rinishga keltirilganini ochiq ko'rsatib beradi. Masalan, 1930-yillarning o'rtalariga kelib, tilimizning turkiy tabiatiga xos unlilar uyg'unligi masalasining yozuvda inkor etilishi imlo qoidalari, so'zlarning talaffuz me'yorlarini ham ma'lum ma'noda o'zgartirib yuborgani asarda chuqur tahlil qilingan. Inomjon Azimov bu jarayonlarni tahlil qilar ekan, imlo qoidalari kelishuv yoki konvensional qoidalar majmuyigina emas, milliy tafakkur uslubining grafik in'ikosi ekanligini ta'kidlaydi. Har bir imlo islohoti ortida muayyan bir ilmiy maktabning qarashlari yoki muayyan bir guruhning til haqidagi falsafasi yotganini monografiyadan anglash qiyin emas. Ayniqsa, asarda o'zak va qo'shimchani birlashtirish nuqtasidagi tovush o'zgarishlarini yozuvda aks ettirish tamoyillari xususida to'xtalib, muallif o'zbek imlosining morfologik tamoyili qaysi davrlarda ustuvor bo'lgani va qaysi davrlarda fonetik tamoyilga yo'l berganini statistik va qiyosiy ma'lumotlar bilan boyitadi. Bu o'quvchi bugungi kunda lotin alifbosi atrofida kechayotgan "islohotlar zarurmi yoki yo'qmi?" degan savolga o'tmish prizmasi orqali javob topishga yordam beradi.

Asarning bu bo'limida keltirilgan lingvistik argumentlar bugungi kunda lotin yozuviga asoslangan o'zbek imlosi qoidalari takomillashtirish ustida ishlayotgan mutaxassislar uchun tayyor ilmiy xulosalar manbasi bo'lib xizmat qiladi. Inomjon Azimov tadqiqoti bilan o'zbek tilshunosligida imlo islohotlari ma'lum bir "fonetik-grafik inqiloblar" silsilasida kechganini ko'rsatib bergan. Muallif fikricha, o'zbek imlosi bir asrlik shakllanish tarixi davomida juda katta "lingvistik qurbonlar" bergan va, shu bilan birga, zamonaviy adabiy til me'yorlarining shakllanishiga poydevor bo'lgan. Tadqiqotda alohida urg'u berilgan jihat shuki, imlo qoidalari ishlab chiqilayotganda tilning ichki imkoniyatlari bilan birga, yozuvning ommabopligi va o'rganish uchun osonligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash eng qiyin vazifa bo'lib kelgan. I.Azimov bu muvozanatning turli davrdagi ko'rinishlarini tahlil qilar ekan, o'zbek imlosining kelajagi o'tmishdagi lingvistik boyliklarni hozirgi kun ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirishda ekanligini ishonarli tarzda bayon etadi. Umuman olganda, monografiyaning bu qismi o'zbek tili fonetikasi va orfografiyasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, shuningdek, til siyosatining imlo me'yorlariga ta'sirini tushunishda mislsiz ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Inomjon Azimov monografiyasi oddiy filologik tadqiqot doirasidan chiqib, o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy tarixi va milliy o'zlikni anglash jarayonlarini imlo prizmasi orqali yoritib beruvchi salmoqli asardir. Muallif asarning bu qismida jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar, mafkuraviy tazyiq va davlat qurilishi jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini ishonarli dalillar bilan ko'rsatib beradi. Tadqiqotda o'zbek tili imlosining XX asrdagi evolyutsiyasi ochiq-oydin siyosiy manipulyatsiyalar obyekti bo'lgani arxiv hujjatlari asosida tahlil qilingan. I.Azimov 1920-yillardan boshlab yozuv va imlo masalasi qanday qilib o'sha davrdagi hukmron mafkura qo'lda qurolga aylangani, xususan, lotinlashtirish va keyinchalik kirillashtirish jarayonlarida o'zbek imlosining milliy asosi qanday darz ketganini jasorat bilan ochib beradi. Monografiyada alohida ta'kidlanganidek, 1930-yillardagi imlo islohotlari shunchaki "savodxonlikni oshirish" shiori ostida emas, tilni tarixiy ildizlardan uzish va ma'lum bir qolipga solish maqsadini ko'zlagan edi.

Muallif sho'ro davri imlo siyosatini tahlil qilar ekan, rus tili ta'sirining o'zbek imlosiga kirib kelish mexanizmlarini o'rganadi. Xususan, rus tilidan o'zlashgan so'zlarning asl holicha(ruscha yozilishi) qabul qilinishi o'zbek tilining fonetik-morfologik tizimida qanday "notabiiy" oziqlanishlarni keltirib chiqargani asarda chuqur ilmiy tanqid ostiga olingan. I.Azimov bu jarayonni o'zbek tilshunosligi uchun "majburiy moslashuv" davri deb baholaydi va bu asratlar bugungi kunda ham lotin yozuvdagi imlo qoidalarimizda aksini topayotganini ko'rsatib beradi. Monografiyada keltirilgan 1956-yildagi "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" va undan keyingi tahrirlar tahlili ko'rsatadiki, o'sha davr imlo qoidalari ko'p jihatdan rus orfografiyasining andozalariga tayanib qolgan edi. Bu o'zbek tilining o'ziga xos tovush tizimi va so'z yasalishi qonuniyatlarining yozuvda ikkinchi darajali bo'lib qolishiga sabab bo'lgan. Inomjon Azimov bu tarixiy xatolarni shunchaki sanab o'tmaydi, bugungi kundagi lingvistik oqibatlarini tahlil qiladi va milliy imlo poydevorini qayta qurishda nimalarga e'tibor berish lozimligini uqtiradi.

Shu bilan birga, asarning bu qismida mustaqillik davridagi imlo islohotlari, xususan 1993 va 1995-yillardagi lotin yozuviga o'tish jarayonlari yangicha ijtimoiy-psixologik kontekstda ko'rib chiqiladi. Muallif mustaqillik yillarida imlo masalasi milliy g'urur va davlat tili nufuzi bilan qanchalik bog'liq bo'lganini ta'kidlaydi. I.Azimov fikricha, lotin yozuviga qaytish alifbo almashinuvi, millatning o'zagi, turkiy dunyo madaniy makoniga qaytish harakati edi. Biroq asarda lotin alifbosi

asosidagi imlo qoidalarining ishlab chiqilishidagi shoshma-shosharliklar, izchillikning yetishmasligi va jamoatchilik fikrining yetarlicha inobatga olinmagani kabi masalalar ham xolis tahlil etilgan. Muallif bugungi kunda imlo qoidalari atrofida kechayotgan turli qarashlarni (masalan, tutuq belgisi, harfiy birikmalar yoki ayrim unlilar imlosi) o'tmishdagi siyosiy-ijtimoiy tajribalar bilan qiyoslaydi. Imlo islohoti faqat tor doiradagi tilshunoslarning ishi emas, butun jamiyatning madaniy darajasiga ta'sir qiluvchi umummilliy masala ekanligini isbotlaydi.

Inomjon Azimov monografiyasining ijtimoiy qimmati shundaki, o'quvchida imlo qoidalariga nisbatan davlat tili siyosatining ajralmas qismi sifatida qarash ko'nikmasini shakllantiradi. Asarda til va imlo siyosatining ochiqligi, ilmiyligi va xalqchilligi tamoyillari ilgari suriladi. Muallif o'zbek imlosi tarixidagi har bir "inqilob" jamiyat hayotida qanday aks sado berganini ko'rsatish orqali bugungi islohotchilar zimmasidagi mas'uliyat naqadar ulkan ekanligini eslatib turadi. Bu qismida keltirilgan arxiv materiallari, xususan, turli yillardagi hukumat qarorlari va lingvistik tahlili asarning rasmiy-hujjatli quvvatini oshiradi. I.Azimov o'zbek imlosini shakllantirishda "siyosiy iroda" va "ilmiy xolislik" o'rtasidagi oltin o'rtaliqni topish zarurligini uqtiradi.

Inomjon Azimov monografiyasi o'zbek tilshunosligida uzoq yillar davomida to'planib qolgan imloviy muammlarni tarixiy haqiqat tarozisida tortib bergan fundamental tadqiqot sifatida yakunlanadi. Muallif asarning xulosa qismida bir asrlik murakkab va ziddiyatli yo'lni sarhisob qilar ekan, imlo qoidalari savodxonlikni ta'minlovchi texnik qurolgina emas, millatning madaniy birligi, ma'naviy yaxlitligi va intellektual salohiyatini namoyon etuvchi strategik obyekt ekanligini yana bir bor ilmiy asosda tasdiqlaydi. Tadqiqotning yakuniy xulosalari ko'rsatadiki, o'zbek imlosi tarixda bir necha bor siyosiy va mafkuraviy "jarrohlik" stoliga yotqizilgan bo'lsa-da, hayotiyli va moslashuvchanligi milliy tilning ichki quvvati hamda jonli xalq shevalarining boy imkoniyatlari tufayli saqlanib qolgan. I.Azimov o'zbek imlo islohotlari tarixidan olinishi lozim bo'lgan eng muhim saboq har qanday o'zgarishda izchillik, ilmiylik va til tabiatiga hurmat ekanligini uqtiradi. Muallif fikricha, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolar, xususan, tilning fonetik tabiati, xususan unlilar uyg'unligini inobatga olmay qilingan sun'iy o'zgarishlar bugungi kunda ham jamiyatdagi umumiy savodxonlik darajasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Asarning amaliy ahamiyati shundaki, bugungi kunda lotin yozuviga asoslangan o'zbek imlosini takomillashtirish bo'yicha ketayotgan qizg'in ilmiy-ijtimoiy bahslarga o'ziga xos "yo'l xaritasi"ni taqdim etadi. Inomjon Azimov monografiyasida keltirilgan arxiv hujjatlari, 1921-yildan buyon o'tkazilgan qurultoylar materiallari va

qiyosiy jadvallar shuni isbotlaydiki, har qanday yangi imlo qoidasi joriy etilishidan oldin uning tarixiy ildizlari, avvalgi tajribalardagi natijalari va til tizimidagi o'rni chuqur o'rganilishi shart. Muallif milliy imlo mafkurasini shakllantirishda tilning ichki mantiqiga asoslanishni, chetdan kirgan so'zlar imlosida o'zbek tili tabiatini ustuvor qo'yish tamoyilini ilgari suradi. Bu, o'z navbatida, tilimizni turli xil tashqi ta'sirlar, xususan, "yot" orfografik andozalardan himoya qilish va o'ziga xosligini kelajak avlod uchun asrab qolish imkonini beradi. Monografiyaning yakuniy xulosalarida alohida ta'kidlanganidek, imlo qoidalari barqarorligi jamiyatning ijtimoiy-madaniy barqarorligi bilan uzviy bog'liq. Muallif ogohlantiradiki, tez-tez va ilmiy asoslanmagan holda o'zgarib turadigan qoidalar maktab o'quvchilarining savodi, butun millatning umumiy madaniy xotirasi, kutubxonalardagi millionlab kitoblarning o'qilish qobiliyatiga putur yetkazishi mumkin.

I.Azimov bu asari bilan o'zbek tilshunosligida yangi bir an'ana – imlo tarixini manbashunoslik, sotsiologiyatika va til siyosati chorrahasida kompleks tadqiq etish an'anasini mustahkamladi. Monografiyadagi boy bibliografik ma'lumotlar va qariyb 150 sahifadan iborat bo'lgan, ilk bor tizimlashtirilgan ilovalar qismi kelajakdagi tadqiqotchi, tilshunos va tarixchilar uchun mislsiz ilmiy xazina bo'lib xizmat qiladi. Bu kitob bir marta o'qib chiqiladigan oddiy asar emas, tilshunos, adabiyotshunos, nashriyot xodimlari va ona tili o'qituvchilari uchun doimiy murojaat qilinadigan metodologik manbadir. Taqrizchi sifatida e'tirof etish joizki, Inomjon Azimov o'zbek imlosi tarixini yaxlit bir asar holiga keltirish orqali milliy marifatparvarlik ishiga, xususan "Davlat tili haqida"gi qonun ijrosini ta'minlashga ulkan hissa qo'shdi.

Shunday qilib, "O'zbek adabiy tili imlo qoidalarining shakllanish tarixi" monografiyasi zamonaviy o'zbek filologiyasining so'nggi yillardagi eng yirik va salmoqli yutuqlaridan biridir. U o'tmishdagi murakkab jarayonlarni o'rganish orqali xatosiz kelajakni qurishni o'rgatadi. Imlo qoidalarining shakllanishi tugallangan jarayon emas, millat ma'naviyati bilan birga o'sib boradigan jonli harakatdir. Inomjon Azimov bu harakatning ichki mexanizmlarini mahorat bilan ochib berish orqali o'zbek tilining nufuzini oshirish va jahon tillari qatorida munosib o'rin egallashiga xizmat qiluvchi mustahkam ilmiy poydevor yaratdi. Asar ona tilimizga bo'lgan yuksak muhabbat va ilmiy mas'uliyatning namunasi, uzoq yillar davomida o'zbek tilshunosligi istiqbolini belgilovchi asosiy manbalardan biri bo'lib qolishi shubhasiz. Har bir o'zbek ziyolisi va til ixlosmandi uchun ushbu kitob bilan tanishish bilim olish, millatimizning yozma nutq madaniyati qanday mashaqqatli yo'llar, bahs va ilmiy izlanishlar natijasida shakllanganini anglash demakdir. Muallifning mehnati o'zbek tili tarixida munosib o'rin egallashiga va amaliy tilshunosligimiz rivojiga xizmat qilishiga ishonchimiz komil.

Baxtiyor MENGLIYEV,
G'ofir HAMROYEV,
TAFU tadqiqotchi-professorlari

Siyosiy sharh



Dunyoda kechayotgan bugungi voqealarni kuzatar ekanmiz, dono xalqimiz to'qigan "Yov qochsa, botir ko'payar" degan hikmatli maqol qayta-qayta yodga tushaveradi. Bugungi dunyoda g'oliblar shunchalik ko'payib ketdiki, asti qo'yaverasiz. Hatto demokratik Amerika prezidenti Donald Tramp ham Vashington shahrida hashamatli G'alaba darvozasini tiklashga qaror qildi. To'g'ri-da, nega Parijda, Moskvada, Berlinda G'alaba arklari bor-u, Vashingtonda bo'lmasligi kerak?! Tramp Moskvadagi bayram kabi g'alaba paradi o'tkazishniyam niyat qilgan. Nega desangiz, Rossiya prezidenti Ikkinchi jahon urushida qozonilgan zafarni, xuddi o'zining shaxsiy g'alabasidek qilib ko'rsatmoqda.

MAG'LUBIYAT VORISLARI

bayramdagi "bayram"

U yaqinda, 9-may kuni Qizil maydonda g'alabani 81 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan paradda ma'ruza qilib, g'alabani faqat sho'ro xalqining ko'rsatgan jasorati natijasi sifatida taqdim etdi. Ma'ruzada generalissimus Iosif Stalin, marshal Georgiy Jukov yoki g'alaba ilhomchisi sanalmish shonli Kommunistik partiya, qolaversa, g'alabaga beqiyos katta hissa qo'shgan ittifoqchilar haqida lom-mim deyilmadi. Aksincha, bo'lib o'tgan urushga hech qanday aloqasi bo'lmagan bugungi Ukraina urushi qatnashchilari sha'niga maqtovlar aytiladi. Bunday biryoqlama gaplar esa o'z navbatida kimlargadir borib tegishi turgan gap. Masalan, AQSH prezidenti Donald Tramp Ikkinchi jahon urushidagi fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga baho berar ekan, uni Amerika boshliq G'arb dunyosining g'alabasi sifatida taqdim etdi va agar lend-liz yordami bo'lmaganida, urush sho'ro mamlakatining mag'lubiyati bilan tugashi ehtimolini aytdi. Tramp uslubiga xos mubolag'abozlikni e'tibordan soqit qilib aytganimizda ham, fashizm ustidan qozonilgan g'alabada AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada singari yirik davlatlarning hissalarini beqiyos katta bo'lganligi tarixiy haqiqatdir. Shu ma'noda Putin o'z chiqishida ularning sho'ro armiyasiga ko'rsatgan yordamlari haqida, albatta, aytib o'tishi lozim edi.

Bizning nazarimizda, bir vaqtlar g'alaba bayramini nishonlash ezgu bir an'ana sifatida boshlangan esa-da, bugungi kunda bu tadbir ochiq siyosatbozlikka aylanib bormoqda. Unda yangi-yangi ajal qurollarini namoyish etish, bugun olib borilayotgan urush qatnashchilarini ulug'lash, raqib sanalmish mamlakatlarni bayramga taklif qilmaslik kabi siyosiy ishoralar shular jumlasidandir. Aytaylik, shu yilgi g'alaba bayramiga ko'pgina qo'shni davlat rahbarlari taklif etilmadi. Bu bizga oddiy hodisa bo'lib ko'rinsa ham, uning ostida bir qancha aytilmagan so'zlar yotibdi. Demak, rus hukumatiga ularning qandaydir xatti-harakatlari yoqinqiramagan ko'rinadi. Garchand bu gaplar ochiq aytilmasa ham, shama ostida o'sha mamlakatlar rahbarlariga Moskvaniing izohsiz ishorasi ochiq ko'rinib turibdi. Kreml siyosatida shunaqa shartli belgilar borki, ularni kuzatib turib, kishi hayron qoladi. Bunga misol qilib quyidagi voqeani ko'rsatish mumkin. Moskva shu paytgacha major millatiga mansub xalqning ukrain millatchilari tomonidan kamsitilib kelinayotgani haqi-

da jar solib kelardi. Sababi: Vengriyada moskvaparast Orban hokimiyat tepasida turgandi. U saylovda raqiblariga yutqazib, yevropaparast kuchlar hokimiyat tepasiga kelgach, vaziyat keskin o'zgardi. Moskva vengerlar uyushib yashaydigan G'arbiy Ukrainadagi shahar va qishloqlarga bomba yog'dira boshladi. Bu Kreml yo'rig'iga yurishni istamagan Budapesht hukumatiga o'ziga xos javob bo'lgani ravshan ko'rinib turibdi. Ushbu voqea munosabati bilan Vengriya hukumati Rossiyaning Budapeshtdagi elchisini chaqirtirib, noxush voqeaga izoh berishni talab qilgan. Nima bo'lganda ham, Moskva Ikkinchi jahon urushida dunyo xalqlarining fashizm ustidan qozongan ulug' g'alabasini g'alabavozlik siyosatiga aylantirib yubormoqda. Ushbu g'alabaga o'zbek va qozoq xalqlarining qo'shgan beqiyos hissasining tan olinishi esa tarixiy haqiqat baribir yuzaga chiqishini ayon ko'rsatib qo'ydi. Chunki bu ikki xalqning jahon urushida bergan qurbonlari AQSH, Angliya va Kanada xalqlari yo'qotishlaridan ham ko'proq.

JAHON OQSOQOLI

Putin Moskvada o'tkazgan g'alaba tantanalarida shimoliy koreyaliklar eng aziz mehmon bo'lishdi. Ularning xizmatlari Ikkinchi jahon urushida emas, balki bugungi kunlarda davom etayotgan janglarga qo'shgan hissalarini evaziga taqdirlandi. Koreyaliklar Ukraina urushida Rossiyaga yordam uchun ming-minglab askarlarini, milliard-milliard dollarlik qurol-yarog'larini jo'natishdi. Askarlaridan 6 mingga yaqini halok bo'ldi, evaziga Pxenyan hukumati hozircha bu urushdan 6 milliard dollarlik foyda olganligi aytilmoqda. Bu gaplarda qancha haqiqat borligi bizga qorong'u bo'lsa-da, Shimoliy Koreya bugun Rossiyaning eng yaqin ittifoqchisiga aylangani ayni haqiqat. Bundan tashqari, Eron, Xitoy singari yirik davlatlar ham Moskvani har jabhada qo'llab-quvvatlab turishibdi. Shu tariqa bugun dunyo xuddi sovuq urush yillarida bo'lgani kabi ikki bir-biriga diametral zid bo'lgan qutbga bo'linib ketdi. Biri G'arb demokratiyasi ustuvor bo'lgan mamlakatlar, ikkinchisi esa ko'proq avtokratik usulda boshqariladigan Sharq mamlakatlaridir. Bu borada Amerika prezidentining katta xizmati shundan iboratki, u bu ikki qarama-qarshi dunyoni qovushtirishga va shu orqali AQSHni dunyoning oqsoqol davlatiga aylantirishga urinmoqda. U bu jabhada

Kim Chen In, Putin, Si Szinpin singari avtokratik davlat boshliqlari bilan ham uchrashib, ularni hamkorlikka chorlamoqda. Agar gapga ko'nsa, Eron ruhoniylari bilan ham murosas qilishga tayyor. Talab esa bitta: bu ham bo'lsa, Eron atom quroli yasashdan voz kechishi kerak. Tehrondagi lar garchand bunga rozi ekanliklarini bildirsalar-da, boyitilgan uran xomashyolarini topshirishni istamayaptilar. Bu esa Eron kelajakda yadro qurolini yaratishdan umid uzmagandligini ko'rsatib turibdi. Tramp nazarida Eronning bu dahshatli qurolga ega bo'lishi kelgusida dunyo xavfsizligiga katta xatar paydo qilishi mumkin. Qaysidir ma'noda Trampni ham tushunish mumkin, nega desangiz, Tehron bugungi

kunda qo'lidagi barcha vositalarni: diniy mafkura, iqtisodiy siquv, proksi kuchlar, qo'yingki, qo'lida mavjud bo'lgan barcha vositalarni qo'llashdan sira tap tortmayapti. Ayrim mamlakatlar va xalqlarni yer yuzidan yo'qotish haqidagi orzularini ham yashirmayapti. Bularning bari faqat Trampni emas, balki barcha qo'shni mamlakatlar xalqlariniyam sergaklantirmoqda. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, Tramp Eronning Yaqin Sharqdagi gegemon davlatga aylanish maqsadiga mutlaqo qarshi. U Eronning boshqa barcha davlatlar singari AQSH va Isroil bilan yaxshi munosabatda bo'lishini istamoqda. Ammo Tehrondagi rahbarlar unga hozircha kalondimog'lik bilan rad javobini berishmoqda va bu Trampga mutlaqo yoqmayapti. Dunyodagi aksilamerika kayfiyatidagi kuchlarga esa bu holat ayni muddao, ammo bundagi eng yomon tomon shundaki, bularning barchasi uchun radikal diniy ideologiya bosimi ostida qolgan oddiy Eron xalqi va qo'shni mamlakatlar badal to'lamoqda. Mintaqada shakllangan ushbu geosiyosiy vaziyat qachongacha davom etishi esa yolg'iz Yaratgangagina ayon. Nima bo'lganda ham AQSH va Eron munosabatlari tobora taranglashib bormoqda. Har ikki tomondan bildirilayotgan kelishuv takliflari rahbarlar tomonidan "mutlaqo qabul qilib bo'lmas" deya rad etilmoqda. Tramp hozirgi o't ochishni to'xtatish kelishuvining istiqbolini juda past deb baholab, sulhning saqlanib qolish imkoniyati bor-yo'g'i bir foiz ekanini aytmog'da. Ayni paytda Eronning yadroviy dasturi va boyitilgan uran zaxiralari masalasi muzokaralardagi eng asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Isroil bosh vaziri ham Eronning yadroviy salohiyati batamom yo'q qilinmaguncha, urush xavfini tugagan deb hisoblab bo'lmasligini aytgan. Bu voqealar shuni anglatadiki, Yaqin Sharqdagi notinch vaziyat hali-beri o'z asliga qaytmaydi.

ALG'OV-DALG'OV DUNYO

Hozirgi real voqelik shundan iboratki, yer kurrasi koinot bo'ylab milliard yillik qat'iy tartibi bilan suzib borayotgan bo'lsa-da, jahon hamjamiyati ham azaliy tartibsiz yo'li bilan harakatlanishda davom etmoqda. Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo tinchliksevar xalqlarining sa'y-harakati bilan shakllantirilgan tinch-totuv yashash taomili jiddiy sinovlar bilan yuzma-yuz kelmoqda.

Baynalmilal umuminsoniy qadriyat-

lar oyoqosti qilinmoqda. Asrlar davomida yaratilgan hayot qonun-qoidalarini qayta taftish etilmoqda. Davlat chegaralari shubha ostiga olinib, yangi-yangi qonli urush o'choqlari paydo bo'lmoqda. Hozir shunday vaziyat yuzaga keldiki, hech kim bir-biriga yoqmayapti. Kichik davlatlar o'z g'ami bilan "jon qayg'usi"da bo'lsa, yirik imperiyalar qanday qilib bo'lmasin o'z ta'sir doirasini kengaytirish, ya'ni "moy qayg'usi"da o'lib-tirilmoqda. Chunki har qanday imperiyaning taqdiri uning kengayish qobiliyati bilan belgilanadi. Kengaymagan imperiya tarixan halokatga mahkum ekanligi isbot talab qilmaydigan aksiomadir. Shu ma'noda Trampning hali Grenlandiya, hali Kanadani, hali Venesuelani AQSHning 51-, 52-, 53-shtatlari qilib olish orzusini mutlaqo tushunish mumkin. Xuddi shuningdek, Putin ham Ukrainaga tegishli qator viloyatlarni konstitutsiya asosida burun eldan Rossiya tarkibiga qo'shib qo'ygani mutlaqo tushunarli holat. Agar Ukraina tomonidan Putinning piligi pasaytirib qo'yilmaganda edi, yana o'sha 1991-yilgi holatga qaytarmidiki?! Xitoy ham o'zini mustaqil hisoblaydigan Tayvan orolini qo'shib olish uchun jon-jahdi bilan harakat qilmoqda. Pekin Rossiyaning Uzoq Sharqdagi o'lklarini Xitoydan adolatsiz ravishda tortib olingan hududlar deb hisoblashiyam katta sir emas. Lekin shunisi ham aniqki, agar Amerikadagi 50 ta shtat 50 ta mustaqil davlat bo'lganida, Yer yuzidagi muammolar balki 50 baravar kamaygan bo'larmidiki?! Ammo bu bizning shirin orzularimiz, xolos. Bu borada voqelikka real nazar bilan qaramoq joiz. Aytaylik, Rossiyada o'tgan asrda sodir etilgan bolsheviklar inqilobi imperiyani saqlab qolishning eng oqilona yo'li bo'lgandi. Bu haqda ulug' rus yozuvchisi Maksim Gorkiy o'zining "Bemavrid fikrlar" deb nomlangan publitsistik maqolasida quyidagilarni yozgan edi: "... bolsheviklar haqida iliq fikrlarni ham aytishim mumkin. Ularning yurg'izayotgan siyosati kelajakda oxir-oqibat qanaqa natijaga olib kelishidan qat'i nazar, rus xalqiga katta xizmat ko'rsatdi. Ular xalqda voqelikka nisbatan faol munosabat uyg'otib, mamlakatni muqarrar halokatdan saqlab qoldi". Baynalmilalchilik mafkurasiga asoslangan kommunistik jamiyat qurish g'oyasi ko'pmillatli saltanat birligini ta'minlagan yagona omil bo'lgani bugungi kunlarimizda ochiq ayon bo'lib bormoqda. Shu ma'noda voqealar o'tgan asrning 90-yillaridagi yo'nalishi bo'ylab rivojlanganda edi, balki bugungi noxush muammolar bo'lmasmidi. Aytaylik, 1996-yilda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida rus kommunistlarining rahbari Gennadiy Zyuganov eng ko'p ovoz to'plagan. Biroq saylovdagi ma'muriy bosim va soxtagarchiliklar oqibatida g'oliblik Boris Yelsinga nasib etgandi. Bu voqealarning natijasini biz bugungi kunlarda to'liq his qilib turibmiz. Endilikda shu narsa ochiq ayon bo'lmoqdaki, Rossiya uchun kommunistik tuzum eng maqbul yo'l ekan. Shu ma'noda haliyam bo'lsa, u yerda baynalmilal kommunistik boshqaruvga o'tilsa, maqsadga muvofiq kelarmidiki?! Aksincha, o'ng populistik millatchilik yo'nalishidagi firqalar hokimiyati ertanmi yoki kech mamlakatda chuqur ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarni kuchaytirishi va imperiya batamom halokatga yuz tutishi ehtimoli yildan yilga ortmoqda. Eng yomoni: bu jarayonlar o'tgan asrning 90-yillaridagidek nisbatan tinch yo'l bilan kechmasligi ham tobora ayon bo'lib bormoqda.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI KAFEDRALARI BO'YICHA QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI



TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN QUYIDAGI HUJJATLAR TAQDIM ETILISHI LOZIM:

- institut rektori nomiga ariza;
- xodimlar shaxsiy varaqasi;
- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom nusxalari;
- mehnat daftarchasi nusxasi;

- ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati;
- ijodiy ishlari ro'yxati, ijodiy ishlari fotoalbomi;
- kataloglar.

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida institut kengashi kotibi tomonidan qabul qilinadi.



Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko'chasi, 123-uy.
Murojaat uchun telefon raqami: (71) 255-18-33, 255-98-39.

I. "Miniatyura va kitob grafikasi"

kafedrası:

- o'qituvchi.

II. "Teatr bezagi rangtasviri"

kafedrası:

- o'qituvchi.

III. "Haykaltaroshlik" kafedrası:

- dotsent.



FAN VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI

FAN VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

"Iqtisodiyot" kafedrası:

- dotsent – 1 nafar;
- o'qituvchi – 1 nafar.

"Xorijiy tillar" kafedrası:

- katta o'qituvchi – 1 nafar;
- o'qituvchi – 1 nafar;

"Pedagogika" kafedrası:

- katta o'qituvchi – 1 nafar;
- o'qituvchi – 1 nafar.

"Aniq fanlar" kafedrası:

- dotsent – 1 nafar;
- katta o'qituvchi – 1 nafar;
- o'qituvchi – 1 nafar.

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası:

- dotsent – 1 nafar;
- katta o'qituvchi – 1 nafar;
- o'qituvchi – 1 nafar.

"Ijtimoiy fanlar" kafedrası:

- dotsent – 1 nafar;
- katta o'qituvchi – 1 nafar.

"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası:

- kafedra mudiri – 1 nafar;
- katta o'qituvchi – 1 nafar.

TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN QUYIDAGI HUJJATLAR TAQDIM ETILISHI LOZIM:

- universitet rektori nomiga ariza;
- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom nusxalari;
- mehnat daftarchasi nusxasi;
- malaka oshirganligi to'g'risida sertifikat;
- ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati (3x4 shakl);
- ijodiy ishlari ro'yxati, ijodiy ishlari fotoalbomi.

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida universitet xodimlar bo'limi tomonidan qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Diydor ko'chasi, 71-uy.
Murojaat uchun telefon: (97) 747-87-65.



Qutlov

ILM YO'LIDAGI UMR

Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat ko'chasida qoladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo'ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko'rgan emas. Ana shunday umrini ilmga bag'ishlagan fidoyi insonlardan biri Baxshillo Olimovdir.

Baxshillo Olimov 1974–1982-yillari Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining fizika fakultetida tahsil oldi. Mehnat faoliyatini 1976-yili O'zMU fizika fakulteti "Yadro fizikasi va kosmik nurlar" kafedrasida boshladi.

U o'z faoliyati davomida akademik Abdug'ani Abdurazzoqov, "Kosmik nurlar va elementar zarrachalar" kafed-rasi mudiri, akademik Sodiq Azimov, akademik Po'lat Qirg'izboyev, akade-mik Komil Muqimov, Amaliy fizika ilmiy tadqiqot instituti direktori, aka-demik Tolib Mo'minov darslarida qat-nashib ta'lim olgan bo'lsa, ayni paytda pedagogika sohasida Risboy Jo'rayev va boshqa akademiklar bilan ishlab kelmoqda.

1982-yildan shu institut tarkibida-gi "Yadro mikroanaliz laboratoriyasi"-da ilmiy xodim sifatida faoliyat olib bordi. Ilmiy tadqiqot ishlarini Mosk-va davlat universiteti qoshidagi yadro fizikasi ilmiy tadqiqot instituti hamda Moskvaning "Dubna" yadro tadqiqotlari qo'shma institutida davom ettirdi. Shu yili Baxshillo Olimov ko'magida aka-demik Tolib Mo'minov taklifiga binoan tashkil qilingan Amaliy fizika ilmiy-tad-qiqot institutiga Polshaning "EPR" va "Messbaur" spektrometrlari olib kelindi.

2001-yili Yadro fizikasi institutida "Yuqori temperaturali o'ta o'tkazgichlar-

ni takomillashgan EPR-spektrometrida mikroto'liqlar vositasida tadqiqot qi-lish" mavzusida fizika-matematika fan-lari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

2001-2002-yillari O'zMU qoshidagi S.Sirojiddinov nomli akademik litsey o'quv bo'limi boshlig'i, 2001–2017-yil-lari Toshkent shahar pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Tabiiy va aniq" fanlar kafed-rasi katta o'qituvchisi lavozimida ishladi.

2007-yili O'zbekiston Respublika-si Oliy attestatsiya komissiyasi, Tosh- kent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ilmiy kengashining tavsiyasi-ga ko'ra, Baxshillo Olimovga dotsent ilmiy unvoni berildi. Shundan so'ng TSHXTXQTMOIning "Matematika, informatika va fizika" kafed-rasi mudiri lavozimida faoliyat olib bordi.

Baxshillo Olimov 2 darslik, 3 ta monografiya, 10 ta uslubiy qo'llanma va 100 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi. Ularning aksariyati xorijiy va nufuzli jurnallarda e'lon qilingan.


Olimovning "O'ta o'tkazuvchi material-larning magnit xossalarini o'rganish" mavzusidagi ilmiy ishi O'zbekiston Res- publikasi intellektual mulk obyektlari muhofazasi reyestriga kiritilgan.

U 2017–2019-yillari Qori Niyoziy

nomidagi O'zbekiston pedagogika fan-lari ilmiy-tadqiqot institutida xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, 2019-yildan shu institut tasarrufidagi "Fizika, matematika va informatika" jurnalida muharrir lavozimida ishlab kel-moqda. Shu kungacha Respublika ta'lim markazida ilmiy metodik kengash a'zo-si hamda fizika fanidan darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalarni taqrizlashda ishtirok etib kelayotir. A.Avloniy nomi-dagi pedagogik mahorat milliy instituti tinglovchilari uchun fizika, matemati-ka va informatika fanlaridan o'quv reja dasturlarini tuzishda rahbarlik qilgan. U bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha malaka talablari, fan dasturlari, o'quv adabiyotlarini yaratishda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Respublikamizda uzluksiz fizika ta'limining Milliy dasturi-ni yaratishda faol qatnashgan.

U fizika fani bo'yicha "Fizikadan masalalar to'plami", "Fizika fani o'qituvchilari, o'quvchilar hamda mus-taqil ta'lim oluvchilar uchun ma'lumot-noma", "Umumiy o'rta ta'lim maktab-lari uchun fizika fanidan laboratoriya ishlari", shuningdek, fizika darslarida innovatsion axborot va pedagogik tex-nologiyalardan foydalanishga bag'ish-langan uslubiy va o'quv qo'llanmalar muallifi hisoblanadi.

Baxshillo Olimov TSHPTXQTMOI texnologiya fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining umumkasbiy fanlar tarkibi-ga kiruvchi qayta tayyorlov kurslarida Elektrotexnika, radiotexnika va elek-



tronika yo'nalishlarida "Gidravlika va issiqlik texnikasi", "Uy-ro'zg'or asos-lari", "Mexanizatsiyalash, avtomatlash-tirish va robototexnika asoslari", "Met-rologiya, standartlash va sertifikatlash modullari" fanlaridan ma'ruzalar o'qib kelmoqda. U, shuningdek, Kasbiy qay-ta tayyorlash kursi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiya a'zosi.

Baxshillo Olimovning pedagogik faoliyati, O'zbekiston Respublikasi hukumati va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan munosib taqdirlangan. U mas'uliyatli, tirishqoq, intiluvchan, o'zi va shogirdlariga talab- chan mutaxassis sifatida jamoadoshlari o'rtasida hurmat qozongan.

Yetmish yil – bu shunchaki bir in-son umrining sarhisobi emas, bu hayot maktabi, tajriba va amaliyot, sabr va ma-tonat, xulosa va hikmat. Ustoz ana shu sharafl yoshda ham faoliyatini davom ettirib, yoshlarga ilm ulashish, shogird-larining ilmiy faoliyatiga boshchilik qi-lish, ularni to'g'ri yo'lga boshlash kabi vazifalarni bajarib kelmoqda.

Undagi komillikni ilmiy ishlari, ma-qolalari, shuningdek, zukko, salohiyatli shogirdlari, samarali faoliyatida ko'rish mumkin.

Xolboy IBRAIMOV,
Qori Niyoziy nomidagi TPMI direktori,
akademik

Maxkamov Amirjon Muxammad o'g'lining 03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya hamda 03.00.07 – O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi (biologiya fanlari) ixtisosliklari bo'yicha "Laktobakteriyalarning fitopatogen mikromit-setlarga nisbatan antifungal faolligi, ular sintezlagan fitogormonlarning Vitis vinifera fiziologiyasiga ta'siri" mavzusidagi(biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika univer-siteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.B.04.05 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 5-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Raupov Sardar Abdumurod o'g'lining 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "G'o'zaning G.hirsutum L. turiga mansub seleksion ashyo-lar asosida hosildor va tolasining sifat ko'rsatkichi yuqori bo'lgan tizmalar yaratish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent shahri, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Bo'riyev Zokir Jumayevichning 06.01.02 – Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "O'rtacha sho'rlangan tuproqlarda suvtejamkor sug'orish texnologiyalarini qo'llashning tuproq meliorativ holati va g'o'za hosildorligiga ta'siri" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 15-iyun kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent shahri, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Aliyev Murodjon Tursun o'g'lining 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosli-gi bo'yicha "Jamiyatning raqamli taraqqiyotida inson resursi ahamiyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili" mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa dok-tori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzu-ridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy ken-gashning 2026-yil 4-iyun kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel/faks: (71) 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Kurbanova Ilmira Sharifovnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ingliz va o'zbek tillarida temir yo'l terminlarining struktur-semantik xususiyatlari" mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi-ning himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9 "A" mavzesi, 21-uy. Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz, uzgumyal@exat.uz

Umurzakova Nargiza Maksetbay qizining 06.03.03 – Dorivor o'simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmoekologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Qoraqalpog'iston iqlim tuproq sharoitida sedana (Nigella sativa L.) yetishtirish agroteknologiyasini ilmiy asoslash" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazi huzu-ridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.32/2025.27.12.B/Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111800, Toshkent shahri, Bektemir tumani, Oltintopgan ko'chasi, 15-uy. Tel/faks: (55) 519-21-00, 519-21-00; e-mail: shifobaxsh@urmon.uz



Mirzanov Sherzod Sirlibayevichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Kurashchilarda kuch sifatlarini konsentrik-ekscentrik rejimlarda rivojlantirish va ularni elektron uskuna yordamida baholash ustuvorligi” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 100202, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi, Olimpiya shaharchasi, O‘zbekiston davlat sport akademiyasi.
Tel/faks: (71) 242-30-87; veb-sayt: <https://uzjsiti.uz>; e-mail: jsiti@sport.uz

Abbarova Maxina Fatxullayevnaning 17.00.02 – Musiqi san’ati ixtisosligi bo‘yicha “O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyotida tafakkur mohiyati: tarixi, tahlili, kelajagi” mavzusidagi(san’atshunoslik fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.01.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir marta-lilik ilmiy kengashining 2026-yil 25-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel/faks: (71) 239-46-53, 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz

Berdikulova Surayyo Aslamovnaning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo‘yicha “Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy me‘yorlar va ijtimoiy ong o‘zgarishlari dialektikasi” mavzusidagi(falsafa fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiya-sining himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Sapayeva Feruza Davlatovnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Mumtoz she‘riy matnlarning qardosh tillarga tarjimasi muammolari(Maxtumquli she‘rlari-niing o‘zbek, qoraqalpoq va ozarboyjon tillaridagi tarjimalari misolida)” mavzusi-dagi(filologiya fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shohko‘chasi, 20-uy. Tel/faks: (71) 233-45-21; e-mail: tsuos@info.uz

Yunusova Nafosat Abduhamidovnaning 14.00.04 – Otorinolarologiya ixtisos-ligi bo‘yicha “Burun, burun yon bo‘shliqlari va burun halqum xavfsiz o‘smalari bilan kasallangan bemorlarda eshitish funksiyasining holati” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 1-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-07-66; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Umurzaqov Utkir Komilovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulot-lari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi hamda 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi ixtisosliklari bo‘yicha “Uyushmagan yoshlar faolligini oshirishda bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mu-taxassislari faoliyatini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport il-miy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 23-may kuni soat 14:00 dagi majlisi-da bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 100202, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi, Olimpiya shaharchasi, O‘zbekiston davlat sport akademiyasi.
Tel/faks: (71) 242-30-87; veb-sayt: <https://uzjsiti.uz/>; e-mail: jsiti@sport.uz

Fozilova Nozila Inoyatilloevnaning 14.00.04 – Otarinolarologiya ixtisosligi bo‘yicha “Surunkali yiringli o‘rta otitning asoratli shakllarini erta tashxislashni takomillashtirishda immunogenetik va klinik omillarning roli” mavzusidagi(tibbi-yot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 1-iyun kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-07-66; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Ubaydullayev Mirjalol Baxodir o‘g‘lining 13.00.05 – Kasb-hunar ta‘limi nazari-yasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Kasbiy ta‘lim o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetentligini kredit-modul tizimi asosida shakllantirish metodikasini takomil-lashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) disser-tatsiyasining himoyasi Kasbiy ta‘limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy da-rajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 2-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Otayarov Javohir Odiljon o‘g‘lining 13.00.05 – Kasb-hunar ta‘limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Kasbiy ta‘lim tashkilotlari o‘quvchilarini kom-petensiyaviy yondashuv asosida kasbga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy ta‘limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 2-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Sultanzada Nizamaddin Daniyar o‘g‘lining 14.00.27 – Xirurgiya(tibbiyot fan-lari) ixtisosligi bo‘yicha “Jigar exinokokkozining o‘t yo‘llariga yorilishi bilan aso-ratlarini kompleks davolash usullarini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 2-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Xudaybergenov Shixnazar Olloberganovichning 14.00.27 – Xirurgiya ixtisosligi bo‘yicha “Jigar sirrozi fonida rivojlangan o‘tkir appenditsitni tashxis va davolash taktikasini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa dok-tori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 2-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Xamdamov Ilyosjon Farxodjon o‘g‘lining 14.00.01 – Akusherlik va gine-kologiya hamda 14.00.16 – Normal va patologik fiziologiya ixtisosliklari bo‘yicha “Preyeklampsiya kelib chiqishini homiladorilikning erta bosqichlarida prognoz-lash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi-niing himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 16-iyun kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223-uy. Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: google@tashmeduni.uz

Dvoryashina Viktoriya Sergeyevnaning 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstrali-ya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha “Jon Steynbek ijodida sayohatno-ma janrining o‘ziga xosligi” mavzusidagi(filologiya fanlari bo‘yicha) falsafa dok-tori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli ilmiy ken-gashning 2026-yil 4-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9 “A” mavzesi, 21-uy. tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz, uzgumyal@exat.uz

Jakupov Georgiy Andreyevichning 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstrali-ya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha “Morfonologik xususiyatlar rus tilining fuzion tabiatining namoyon bo‘lishi sifatida” (Морфологические характеристики как проявление фузионности русского языка) mavzusi-dagi(filologiya fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoya-si O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9 “A” mavzesi, 21-uy; tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz; uzgumyal@exat.uz

Abriyeva Nodira Xoshimovnaning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo‘yicha “Erta yoshli bolalardagi shifoxonadan tashqari pnevmonianing og‘ir kechishi-niing prognostik mezonlarini baholash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) fal-safa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universite-ti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 16-iyun kuni soat 13:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: google@tashmeduni.uz

Aliyev Baxtiyor Xojayarovichning 03.00.10 – Ekologiya(biologiya fanlari) ixtisosligi bo‘yicha “Janubiy O‘zbekiston suv omborlarida gidrobiontlar bioxil-ma-xilligiga abiotik va antropogen faktorlar ta‘siri” mavzusidagi(biologiya fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat ve-terinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.B.11.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-iyun kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 140103, Samarqand shahri, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 77-uy.
Tel/faks: (55) 707-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz

Bo‘riboyev Bekzod Yetmish o‘g‘lining 06.01.08 – O‘simlikshunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Soya navlarining o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligi va simbiotik faoliyati-ga biostimulyatorlar qo‘llashning ta‘sirini asoslash” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-iyun kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 111218, Toshkent shahri, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Tashpulatova Maloxatxon Komil qizining 03.00.03 – Molekulyar biologiya. Molekulyar genetika. Molekulyar biotexnologiya ixtisosligi bo‘yicha “Salmonel-la va Escherichia coli shtammlarining antimikrob preparatlarga chidamliligi-niing mikrobiologik va molekulyar-genetik tadqiqi” mavzusidagi(biologiya fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Ilg‘or texnologiyalar markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.B.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-iyun kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, 3-“a” uy. Tel/faks: (71) 227-43-19; e-mail: info@cht-tashkent.uz



Og'riq

BUNDAY BOLALAR QOTIL BO'LIB TUG'ILADIMI?

Besh-o'n yil oldin dunyoda o'zgarishlarni oylar, yillarda kuzatsak, bugun daqiqalar, soniyalarda guvohi bo'lmoqdamiz. Albatta, buni texnika va texnologiya taraqqiyoti bilan bog'lash o'rinli. Biroq bu evrilishlar faqatgina texnologiyalar, qarashlar bilan chegaralanib qolmayapti. Bunda insonlarning taqdiri, xulq-atvori, hatto o'zligi o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Ayniqsa, bu o'zgarishlar beg'ubor qalb sohiblari – bolalar dunyosida kechsa va turli davlatlarda ro'y berayotgan xunrezliklar shu beozor xilqat ruhiyati, hayotiga o'z ta'sirini o'tkazsa bundan ayanchliroq yana qanday fojia bo'lishi mumkin?..

Oxirgi yillarda bolalarning ishtiroki bilan bog'liq ayrim xunrezliklar dunyo ahlini larzaga solayotgani sir emas. Rossiyaning Moskva viloyati Gorki-2 qishlog'ida sodir bo'lgan mudhish hodisa butun jamoatchilikni hayratga soldi. Uspenskiy maktabining 15 yoshli o'quvchisi qo'lida pichoq bilan ta'lim muassasasiga kirib, avval qo'riqchiga, keyin 4-sinfda ta'lim olayotgan 10 yoshli bolaga hujum qilgan. Afsuski, bola olingan tan jarohatlari oqibatida hodisa joyida halok bo'lgan.

Ikkinchi misolning fojiasi ham bundan kam emas. AQSHning Jorjiya shtatidagi maktabda otishma yuz berdi. Buni hali maktab o'quvchisi bo'lgan o'smir sodir etgan. Fojia oqibatida 30 dan ortiq inson yaralangan, 4 kishi vafot etgan. Joriy yilda Turkiyaning Qahramanmaraş shahridagi maktabda sodir bo'lgan otishmada ham to'rt kishi halok bo'ldi, 20 kishi yaralandi. O'lganlardan biri o'qituvchi edi. Hujumchi shu maktabning sakkizinchi sinf o'quvchisi bo'lgan. Hujumlar, qotilliklar, farzandlari ortidan bo'zlab qolgan ota-onalar, va eng yomoni, hujum qilgan bolaning ota-onasining ahvoli...

Albatta, qo'liga tig'li qurol olib, maktablarga hujum qilayotgan bolalar o'zga dunyo yoki boshqa mamlakatning bolalari emas, aynan o'sha ta'lim muassasasining o'quvchilari bo'lib chiqadi. O'zi tahsil olgan dargohda bunday fojiani keltirib chiqarishiga ularni nima yoki kim majbur qildi, deb o'ylaysiz? Psixologlar bunday bolalarni "ruhiyati buzilgan shaxslar" qatoriga kiritishadi va bu holga kelishi sabablarini, avvalo, oiladagi tarbiya, atrofidagi muhit bilan izohlashadi. Bu mavzuda Shayxontohur tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, katta leytenant Mahliyo Nabiyeva quyidagicha fikr bildirdi:


– Barchamiz o'rnatilgan qonun-qoidalariga amal qiladigan, xavfsiz va osoyishta jamiyatda yashashni istaymiz. Bunday muhitda shaxsiy manfaatlarimiz

himoyasi haqida tashvish chekishga o'rin yo'q. Ammo "jinoyat", "huquqbuzarlik" kabi tushunchalar borki, yuqoridagi maqsadga doimo g'ov bo'lib keladi, sog'lig'imiz, mol-mulkimiz taqdiri haqida qayg'urishga majbur qiladi. Jinoyatning kelib chiqishi, sabablari, bartaraf etish usullari haqida necha asrlar davomida bosh qotirib kelinadi. Bu o'rinda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi alohida e'tibor va o'zgacha yondashuv talab qiladi.

O'zbekistonda jami jinoyatlarning 1,5 foizi voyaga yetmaganlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. 2025-yilning 6 oyida bolalar 971 ta jinoyat sodir etdi.

Yoshlar o'rtasida jinoyat sodir etilishi oshib borishiga turli xil omillar sabab bo'lmoqda. Birinchi omil – maktab va boshqa ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlardagi muammolar. Ikkinchi omil – ayrim ota-onalarning farzand tarbiyasiga nisbatan e'tiborsizligi va loqaydligi, farzandi bo'sh vaqtda nimalar qilayotganiga qiziqmay, nazoratsiz qoldirayotgani. Uchinchi omil – ba'zi ota-onalarning tirikchilik maqsadida chet davlat yoki boshqa viloyatlarda ishlab, bolasini nazoratsiz qoldirayotgani. Shuningdek, oilaviy ajrimlar ham sabab bo'lmoqda.

Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini kuzatuvchi alohida xalqaro tashkilot yo'q, ko'plab davlatlarda bunday statistika yuritilmaydi yoki ochiqdanmaydi. Biroq UNICEF tarqatgan ma'lumotga tayanadigan bo'lsak, dunyo bo'ylab 1 milliondan ortiq bola ("Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya"ga ko'ra, 18 yoshga to'lmagan shaxs) qamoqxonalarda jazo muddatini o'tamoqda. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan G'arbiy Yevropa, AQSH va Yaponiya mamlakatlarida voyaga yetmaganlar jinoyati eng ko'p qayd etiladi. O'zbekistonda voyaga yetmaganlarning jami jinoyatlardagi ulushi 2008-yilda 3,4 foiz, 2019-yilda 1,9 foiz, 2020-yilda esa 2,6 foizni tashkil etgan. Voyaga yetmaganlar sodir etgan huquqbuzarliklarni asosan bezorilik, taqiqlangan moddalar-



ni iste'mol qilish, o'g'rilik, erta jinsiy hayotga kirishish va shu kabilar tashkil etadi.

Bolalar huquqbuzarligining quyidagi alohida xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

– huquqbuzarliklar sonida o'g'il bolalarning ulushi qizlarnikiga qaraganda ko'proq bo'ladi;

– huquqbuzarlik darajasi voyaga yetmaganlar orasida 12–18 yosh oralig'ida eng yuqori darajaga ko'tariladi;

– ota-ona yoki vasiysiz yashovchi bolalar orasida jinoyatchilik ko'proq uchraydi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksi normalarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlardagi asosiy o'rinni aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlami, xususan, voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish, shuningdek, takomillashtirish, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolarni qo'llash, javobgarlik va jazodan ozod qilish masalalari va qonunchilikni rivojlantirish egallaydi. Mazkur masalalarni inobatga olib davlatning oliy hokimiyat organlari qonunchilikni takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish, takomillashtirish, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni tayinlash, javobgarlik va jazodan ozod qilish masalalarini rivojlantirish maqsadi bugungi kunda xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligini o'rganish, tahlil qilish va qonunchiligimizga tatbiq qilinishini taqozo etadi.

Voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligining asosiy xususiyatlari:

• Javobgarlik yoshi: jinoiy javobgarlik qoida tariqasida 16 yoshdan boshlanadi.

di. Biroq qotillik, bosqinchilik, o'g'rilik, bezorilik kabi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun 14 yoshdan javobgarlikka tortiladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 82-modd).

• Yengillashtiruvchi holat: sud tomonidan shaxsning voyaga yetmaganligi jazoni yengillashtiruvchi holat deb topiladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 83-modd).

• Jazo turlari: voyaga yetmaganlarga nisbatan jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolari qo'llaniladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 87-modd).

• Ozodlikdan mahrum qilish: voyaga yetmaganlarga ozodlikdan mahrum qilish jazosi oxirgi chora sifatida, faqat og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun tayinlanadi. Eng uzoq muddat 10 yildan (o'ta og'ir jinoyatlar uchun 12 yildan) oshmasligi kerak (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 87-modd).

• Sudlanmagan hisoblanish: Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, voyaga yetmaganlar jazoni o'tab bo'lganidan so'ng sudlanmagan hisoblanishi mumkin.

• Majburlov choralari: jinoiy javobgarlikdan ozod etilib, tarbiyaviy xususiyatga ega majburlov choralari (ogohlantirish, ota-ona nazoratiga berish) qo'llanilishi mumkin.

Asosiy tamoyillar

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ish yuritishda ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishi, jinoyat sabablari va ularni jamiyatga qaytarish imkoniyatlari inobatga olinadi.

Sabablar, jarayonlar, natijalar asosli. Ammo yakunda bizni savollar qiynaydi: bolalar jinoyatga kirmasligi, qo'liga qurol olib, toshqalbgga aylanmasligi uchun nima qilishimiz kerak? Ular beg'ubor olamidan jirkanch jinoyat olamiga kirib ketmasligi uchun qanday choralarni qo'llashimiz lozim? Bolalar jinoyatlarining oldini olishni asosiy vazifasi deb bilgan huquq tartibot xodimlari faqatgina maktablarda o'quvchilarning davomatini tekshirish bilan cheklanib qolmayaptimi? Ota-onalar farzandlarini yetarlicha nazorat qila olyaptimi? Nazarimda, bu kabi savollarni har kuni o'zimizga berishimiz lozim. Biz qalbida ezgulik jo'sh urgan, ilmi, zukko farzandlarni ulg'aytirishga, bugun oldimizga qo'yayotgan buyuk maqsadlarga yetamiz, shunday emasmi?!

Husniya PARDAYEVA,
jurnalist

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6133. Tiraji 6900.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mualfiga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.